

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
dekani: _____ dots.Sh. Nurullayeva
“ _____ ” _____ 2019

4-kurs 015-70-guruh talabasi

Boboqulova Durdon Otabek qizining

5111700-“Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish” yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

***“BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI
IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISH YO‘LLARI”***

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

o‘qituvchi D.Niyozova

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Boshlang‘ich ta’lim

kafedrasi mudiri: p.f.d.R.D.Shodiyev

“ _____ ” _____ 2019

Qarshi – 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I BOB. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatishning nazariy asoslari

1.1.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatish - pedagogik muammo sifatida9

1.2.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tili darslarida ijodiy fikrlashga o‘rgatishning mazmuni.....19

II BOB. Ona tili ta'lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatish usullari

2.1.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini muammoli ta'lim orqali ijodiy fikrlashga o‘rgatish.....28

2.2.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatishda didaktik o‘yinlardan foydalanish.....49

2.3. Muammoga doir tajriba-sinov ishlari va uning samaradorlik natijalari.....55

Xulosa.....59

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ijodiylikiga erishgach, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'naviy rivojlanishning istiqbolli yo‘liga kirib, o‘ziga xos va mos yo‘lni tanlab oldi. Bu boradagi tub o‘zgarishlar barcha jabhalarga shiddat bilan kirib bormoqda. U tibbiyotmi, qishloq xo‘jaligimi, sanoatmi, ta'lim tizimimi-barchasida islohotlar o‘tkazish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Ta'lim sohasidagi islohotlar ularning asosini tashkil etadi desak, xato bo‘lmaydi. Zero, ta'lim o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish bilan birga, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni amalga oshirishda ham asosiy manba hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Farmoni bilan qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”¹ da umumiy o‘rta ta'lim sifatini tubdan oshirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish jarayonida barcha fanlar bo‘yicha o‘qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirish zarurdir. Yosh iste'dodlar o‘sib, ulg‘ayib, Vatanimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishi aniq. Modomiki, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yosh avlodga tayanar ekanmiz, avvalambor, ta'lim sohasiga bir tomonlama qarashdan xalos bo‘lishimiz lozim.

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, barkamol insonni shakllantirish kelajak taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Buyuk islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda ijodiy fikrlovchi yoshlarga bo‘lgan talab davr taqozosidir. Chunki shaxsiy dunyoqarashga ega bo‘lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muvaffaqiyatlarga erishishga qodir bo‘ladilar. Respublikada olib borilayotgan davlat siyosatining bosh omillaridan biri ham ijodiy fikrlovchi, keng dunyoqarashga ega, iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalashdir. Zero, o‘zgalar fikriga qaram bo‘lish, turli yot mafkuralarga

¹Shavkat Mirziyoyev. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili// “Xalq so‘zi”, 2017-yil 31-dekabr

ergashish psixologiyasi jamiyat ma'naviyatini tanazzulga olib kelishi shubhasizdir. Ta'limdagi yangilanish yangicha bilim berish orqali jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o'zgartirishni ham ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda inson erkin va ijodiy fikrlaydigan qilib tarbiyalanishi zarur.

Ijodiy fikrlash borliqni, voqelikni idrok etish usuli sifatida tafakkur jarayonining mahsuli sanaladi. U aqliy faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida bayon etilgan g'oyalar, maktabga oid hujjatlarda qamrab olingan masalalar mazkur muammoning mohiyatiga alohida e'tibor qaratilib shunday deyilgan edi: "Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga, ijodiy fikrlash ham katta boylikdir"².

O'quvchilarni ijodiy fikrlashga, erkin tafakkur yuritishga imkon bermaydigan sabablardan biri o'quvchilar faqat darslik va o'qituvchi tomonidan dars jarayonida beriladigan ma'lumotlarga tayanib qolishlaridir. O'quvchilarga o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablar, ko'p hollarda ijodiy fikr yuritish ehtiyojini tug'dirmaydi. O'quvchining ijodiy fikrlashidan qanoatlanilmasa uning shaxdini bo'g'ib, boshqacha usulda mushohada qilishga majburlashning nafidan ko'ra zarari ko'proq.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida Davlat ta'lim standartlarida belgilangan minimal majburiy talablarga tayanish lozim. Davlat ta'lim standartlarida "Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ona tili va o'qish bo'yicha o'qish hamda yozish malakasi bilan birgalikda matn mazmunini, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini yozma va og'zaki bayon etish malakasiga ham ega bo'lishlari, nutqi tushunarli, ta'sirchan, ravon, mantiqiy jihatdan bog'liq, grammatik jihatdan

²Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – B. 87.

to'g'ri va izchillikda ifodalanishi muhimligi uqtirilgan. Ta'limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligining past bo'lishiga olib keladi. Vaholanki, ijodiy fikrlaydigan o'quvchigina bilimlarni mustahkam o'zlashtiradi.

Ko'rinadiki, boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish kelajakda, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, " ...o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash"ning muhim omillaridan biri sifatida ta'lim tizimida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilar tafakkurini o'stirish, o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish, muammoli izlanish metodi, ijodiy ishlar, didaktik o'yinlarning o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatiga va tafakkuriga ta'siri qator olimlar tadqiqotlari obyekti bo'lib kelgan. Masalan, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish jarayoni Q.Husanboyevaning tadqiqotida o'z aksini topgan.

Professor Q.Yo'ldoshev "Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari"³ mavzusidagi tadqiqotida adabiyot darslarini pedagogik hamkorlik asosida tashkil etish yo'llarini ishlab chiqqan.

A.Choriyev ijodiy fikrlash faoliyatini shaxs ijodiylikining asosiy komponenti sifatida falsafiy jihatdan tahlil qilgan bo'lsa, tafakkurning psixologik asoslarini E.G'oziyev, V.Karimova va Z.Nishonovalar o'z tadqiqotlarida ochib berganlar.

Ammo mazkur ilmiy izlanishlar va ilmiy-metodik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishning ayrim komponentlarigina o'rganilgan bo'lib, o'quvchini ta'lim subyekti darajasiga ko'tarish ko'zda tutilmagan. Shu bilan birga boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish usullari tizimlashtirilmagan.

³ Ne'matov H. Substansial tilshunoslik nimalar berdi? Prof. U.Sanaqulov tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Sam. 2011. B.24-28;

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Boshlang`ich sinflarning ona tili ta'limi jarayonida o`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatish usullarini tadqiq qilish, umumlashtirish hamda tizimlashtirishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:

- mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalarni o`rganish;
- boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarning faolligini oshirishda ilg`or pedagoglar tajribasini o`rganish;
- boshlang`ich sinf ona tili darslarida o`quvchilarning ijodiy fikrlash faolligini oshirishning joriy holatini o`rganish va tahlil qilish;
- olingan natijalar asosida tavsiyalar ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan tavsiyalardan dars jarayonida foydalanish.

Bitiruv malakaviy ishning farazlari, agar, boshlang`ich sinflarning ona tili darslarida quyidagilarga amal qilinsa o`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatish bo`yicha ijobiy samaralarga erishish mumkin:

- darsda o`quvchilarning ijodiy fikrlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsa;
- darslarda o`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatadigan didaktik o`yinlar va topshiriqlardan izchil foydalanilsa;
- ta'lim jarayonida ijodiy ish usullari izchil va muntazam qo`llanilsa;
- dars davomida muammoli vaziyatlar yaratilib, ularda o`quvchilarning ishtiroki ta'minlansa;
- o`qituvchi-o`quvchi hamkorligi to`g`ri yo`lga qo`yilsa.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti. Boshlang`ich sinflarning ona tili darslarida o`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini ijodiy fikrlashga o`rgatishning mazmuni, usullari va bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasining "Ta'lim

to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi, Davlat ta'lim standarti, tadqiqot mavzusiga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalarida ta'limni isloh qilish to'g'risidagi yondashuvlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan qarorlari, ta'lim-tarbiya sohasidagi boshqa me'yoriy va ko'rsatma hujjatlar hamda olimlarning pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlari, shuningdek, ilg'or pedagoglarning zamonaviy maktablarda ta'limni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan asarlari mazkur diplom ishining nazariy metodologik asosi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodi. Tadqiqot davomida kuzatish, qiyosiy tahlil, suhbat, anketa, test topshiriqlari kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning tajriba maydonlari.

Eksperimentlar Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 23-maktabining boshlang'ich sinflarida o'tkazildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida ijodiy fikrlashga o'rgatishning ilmiy va amaliy asoslari aniqlandi.

-Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida «ijodiy fikrlash» tushunchasi mazmunining o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi.

-Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy fikrlash jarayonining psixologik jihatlari tahlil qilindi.

-Muammoli izlanish, ijodiy ish usullari, didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asosini tashkil qilishi isbotlandi.

-O'qituvchi-o'quvchi hamkorligi o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish jarayoniga ta'sir etuvchi muhim omili sifatida tahlil etildi.

-Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish

usullari tizimlashtirildi va uning samaradorligini oshirishga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Boshlang'ich sinflarning ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning nazariy metodik asoslari ishlab chiqilganligi va amaliyotda sinovdan o'tkazilib, ijobiy natija berganligi bilan belgilanadi. Bitiruv malakaviy ishda ilgari surilgan ilmiy faraz, tezis va xulosalaridan "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" fanidan dastur, darslik va metodik qo'llanmalar, ma'ruza matnlari tayyorlashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Kirish, ikki bob, besh bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 62 betni tashkil etadi.

I BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishning nazariy asoslari

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish-pedagogik muammo sifatida

Hayot jumboqlarini, tabiat tug'dirgan muammolarni o'rganish, ularga tegishli javob topish istagi, yana ham to'g'rirog'i, baxt-saodatga erishish muammosi, insonning o'zini va olamni bilishga bo'lgan qiziqishi asrlar mobaynida fikrlashga, o'z fikrlarini mantiqiy asoslashga da'vat qilib keladi. Sharq allomalari asarlarida bu muammoga alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas. Zero, ijodiy, ongli faoliyat yuritadigan insongina o'z xalqi, Vatani, ota-onasi oldidagi burchini uddalay oladi va har qanaqa yot ta'sirlarga berilib ketmaydi, inson degan ulug' nomga munosib ish ko'radi.

Sharq va g'arb olimlari bu muammoni o'zlari yashab o'tgan davr ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda yechishga harakat qilganlar.

Inson tafakkurining beqiyos kengliklari "Qur'oni Karim" va "Avesto"da diniy asosda talqin qilingan bo'lsa, o'rta asrlarda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi qomusiy olimlar asarlarida ilmiy-badiiy usulda talqin qilingan.

Kaykovus ilmiy asarlar mutolaasidan olingan bilimlar nechog'li haq bo'lmasin, hayotda o'z fikriga tayanib ijodiy ish ko'rish lozim bo'lgan vaziyatlar ham bo'lishi mumkinligini o'g'liga nasihat tarzidagi "Qobusnoma" asarida yozadi: "Ey farzand, bilgilki, barcha hukmni kitob bo'yicha qilmasdan, o'z fikrlari bilan ham hukm qilurlar va bunday tadbirlar bilan ham ishni bilib olurlar".

Buyuk qomusiy olim, faylasuf va pedagog Abu Rayhon Beruniy ham bilimlarning hosil bo'lishida aql, fikr, sezgilarining o'rni haqida so'z yuritar ekan, shunday deb yozadi: "Faqat sezgi orqali, sezgi organlari yordamida o'zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishmog'i mumkin... Istaklarga

mehnat tufayli erishiladi”. Olimning fikricha, faqat eshitilgan, ko‘rilgan yoki umuman sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar shundayligicha idrok qilinmasdan, balki aql chig‘irigidan o‘tkazilsa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo‘ladi.

Beruniyning ilmiy merosida tabiatni o‘rganish va bilishning ilmiy metodiga ham katta o‘rin ajratilgan. Beruniy ilmiy metodining xarakterli xususiyatlari obyektivlik va oqilona yondashuv, kuzatish, tajribalar, og‘zaki va yozma yodgorliklarni o‘rganish, dalillarga tanqidiy yondashuv, ularni aqliy xulosalar shaklida mantiqiy umumlashtirish va haqiqatni aniqlash maqsadida qiyoslashdan iboratdir.

Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida badan tarbiyasi bilan bir qatorda fikr tarbiyasiga ham alohida ahamiyat beradi. Uning ta'kidlashicha, fikr tarbiyasi “muallimning yordamiga so‘ng darajada muhtojdir” va inson hayotida muhim ahamiyatga ega:

“Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa, Xanjar olmosdan bo‘lur o‘tkur. Fikrning oynasi olursa zang, Ruhi ravshan zamir o‘lur benur”.

XX asrning so‘nggi o‘n yili o‘zbek xalqi ijtimoiy hayotida, ongida tub burilishlar davri bo‘ldi. Qisqagina vaqtda millatning olamni, voqelikni anglash, idrok etish va tushuntirish tarzida jiddiy sifat o‘zgarishlari yuz berdi. Bu o‘zbek xalqining o‘zligiga qaytganligi, millat tafakkurining sog‘lomlashganligini ko‘rsatadi.

Ana shu ijobiy o‘zgarishlar milliy pedagogikamizda ham o‘z aksini topdi. Endilikda milliy pedagogikamizning maqsadi bilim berish va mutaxassis tayyorlash asosiy niyati bo‘lgan mustabid tuzum pedagogikasidan farqli o‘laroq, barkamol shaxs tarbiyasiga qaratilgan. “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ta'lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchilarga kishilarning demokratik jamiyatda erkin va ijodiy fikrlaydigan qilib tarbiyalanishi lozimligi qayd etilgan.

Pedagogika fanlari doktori Q.Yo‘ldoshev esa milliy tarbiyashunoslikda

samara keltiruvchi faoliyat bu - pedagogik hamkorlik, ya'ni o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati, deb ko'rsatadi.

“Endilikda pedagogika fanining asosiy e'tibori tarbiyalanuvchini faollashtirishga, uni pedagogik jarayonning ishtirokchisiga, tarbiyachining sherigi yoxud hamkoriga aylantirish yo'lini tadqiq etishga qaratilgan”.

Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida insonning bilim olish uchun uning butun yoshlik davri, 24 yoshgacha bo'lgan umri sarflanadi, deydi. Shu davrni to'rt qismga ajratib, har bir davr o'ziga mos maktab bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. “Avvalo, -deydi u,- tashqi sezgilar vositasi bilan narsalarning o'zlari bilib olinadi, chunki narsalar bevosita sezgilarga ta'sir etadi. So'ngra, o'z navbatida, ichki sezgilar harakatga kelib, tashqi sezgilar yordamida bilib olingan narsalarning in'ikosini o'zida aks ettiradi, mujassamlashtiradi va xotira yordamida, shuningdek, qo'l harakatlari va nutq yordamida ifodalaydi. Shundan so'ng aql ishga kirishadi va batafsil fikr yuritib, hamma buyumlarning o'zaro munosabatlarini puxta o'rganish uchun ularning barchasini o'lchab, taqqoslab ko'radi. Bu esa narsalarni va ular haqidagi fikrlarni to'g'ri tushunib olishga imkon beradi. Nihoyat bularning barchasida iroda o'zining qonuniy kuchini ko'rsatishi lozim. Chunki iroda insonning barcha harakatlarini birlashtiradi va boshqaradi”.

Faylasuf olim A.Choriyev «ijodiy shaxs» tushunchasini falsafiy jihatdan tahlil qilar ekan, u o'zida uchta komponentni: ijodiy fikrlashni, ijodiy ishlashni, ijodiy yashashni mujassamlashtirishini ta'kidlab o'tadi va ijodiy fikrlashning inson faoliyatiga ta'siri haqida shunday deydi: “ ... shaxs ijodiyliigi, eng avvalo, uning fikrlash tarziga, fikr-mulohaza yuritish quvvatiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shu qobiliyat tufayli inson o'zi ko'rgan, bilgan, eshitgan, atrofida sodir bo'layotgan hodisalar, voqealar, jarayonlarning mohiyatini, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri, chin yoki yolg'onligini aniqlaydi. Aniqroq qilib aytganimizda, inson xuddi shu qobiliyati tufayli kundalik turmushimizda vujudga kelgan muammolar yechimini topadi».

Psixolog Z.Nishonova esa ijodiy fikr rivojlanganligining psixologik

mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

– O'zining va "o'zgalarning" fikrini tanqidiy baholashda shaxsning tajribasi, o'zga shaxsning fikrini tushunish qobiliyati, uning fikridagi mantiqni tushunish, suhbatdoshning fikrlarini o'z fikrlari bilan taqqoslay olish va ma'lum xulosaga kelish;

– Shaxsning fikr mazmuni bilan tashqi va ichki kelishuv;

– Qarama-qarshiliklarni his qila olish;

– Tafakkurda nazariy va amaliy umumlashtirishning nisbati;

– Diqqatda namoyon bo'ladigan aqliy funksiyalarning ixtiyoriy boshqarilishi;

– Aqliy tashabbuskorlikning rivojlanish darajasi.

Psixologiya fanlari doktori E.G'oziyev va pedagogika fanlari doktori J.Ikromovlar ijodiy fikrlash jarayoni va uning komillikka ta'sirini tahlil qilar ekanlar, ijodiy fikr yuritish quyidagi bosqichlardan tashkil topishi mumkinligini ta'kidlab o'tadilar:

– Muammoning paydo bo'lishi.

– Masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglash.

– O'xshash ma'lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi.

– Tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ning tuilishi.

– Taxminlarni tekshirish yoki ularning haqqoniyligini tasdiqlash.

– Yangi taxmin (faraz)ning yuzaga kelishi.

– Farazlarni ikkilamchi tekshirish.

– Masala, topshiriq, muammo echimini topish (hal qilish).

– Ixtiyorsiz aqliy xatti-harakatlar davom etishi (fikrlashning nisbiy davomiyligi) va hokazo.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va izlanishlar asosida boshlang'ich sinf o'kuvchilarining ijodiy fikrlash mezonlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish

mumkin:

- o‘rganilayotgan materialni ijodiy tahlil qila bilish;
- muammoni hal eta bilish;
- hodisa va jarayonlardagi belgilarni taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish;
- o‘z fikri va tushunchasini mantiqiy dalillash, fikrlarni ravon ifodalash;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llay bilish.
- Yoshlarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish jamiyat hayotida tub burilishlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Negaki mamlakatimizda yuksak e‘tiqodli, ijodiy fikrli, tashabbuskor, yuqori malakali mutaxassislarga har qachongidan ham katta ehtiyoj bor.

Muammo yuzasidan olib borilgan kuzatishlar natijasida o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ona tili ta‘limi katta imkoniyatlarga ega ekanligi isbotlandi. Chunki tafakkur nutq vositasida ifodalanadi, u ayni chog‘da shaxslik sifatlarini tarkib toptirishning ham muhim omilidir.

O‘quvchilarning shaxslik sifatlarini tarkib toptirishda o‘quv predmetlarining o‘rni beqiyos kattadir. Bu borada, ayniqsa, ona tili ta‘limi zimmasiga katta mas‘uliyat tushadi.

Tafakkurdagi ijodiylik va ijodiylik muammosi yapon psixologiyasi-ning tadqiqot obyektiga aylangan bo‘lib, xorij psixologlari ijodiy fikrlashning oliy shakli bo‘lmish tafakkurning ijodiylikiga bergan ta‘riflarining mazmun va mohiyati nuqtayi nazaridan ularni olti turga ajratish mumkin.

Ijodiylik - ijodiy mahsulot, ijodiy shaxs, ijodiy muhit va ijodiy jarayonning mahsuli ekanligi haqidagi xorij tadqiqotchilarining fikri ham turlichadir, jumladan:

F.Barron, P. Harrington, N. Gardnerlar – “ijodiy jarayon - bu muammoni izlashda faollik shakli, bilimlarning mavjud chegarasini ongli va maqsadga

yo‘naltirib kengaytirishga urinish, mavjud cheklanishlarning buzilishidir” - degan fikrga tayanadilar.

D.Feldman, P.Lanqly, RJohnslar – “ijodiy mahsulotlar ijodiy jarayonda tanlash va paydo bo‘lish bosqichlarining tasodifiy o‘zgarish natijasidir”- degan nuqtayi nazarni ilgari suradilar.

E.Torrance – “ijodiy jarayonni tushuntirishdagi muvaffaqiyatsiz urinish yoki tasdiqlanmagan faraz, mavjud bilimlarga yangi g‘oyalarni kiritishga urinish” - sifatida qaraydi va hokazo.

Tafakkurdagi ijodiylik va ijodiylik masalasi ko‘plab rus psixologlarining ham tadqiqot predmetini tashkil etib, ularning fikricha:

P.P.Blonskiy, A.M.Matyushkinlarning ta'kidlashicha, “ijodiylik - tafakkur jarayoni mahsuldorligining sharti, aqlning xislatidir”.

D.N.Bogoyavlenskiyning ko‘rsatishicha, «ijodiylik - bu aqliy faoliyat usullarini egallash natijasi va shartidir» .

M.G.Yaroshevskiy, A.E.Ponomarev va boshqalar talqinicha, «ijodiylik - shaxs ijodiy faoliyati shartidir».

A.S.Bayramov, A.N.Lipkina va boshqalar «ijodiylik aql tanqidiyligining ko‘rsatkichi» - ekanligini izohlaydilar.

S.L.Rubinshteyn esa, «ijodiylik harakatlarning ongli sabablari ko‘rsatilishi (motivlashtirilishi), ularning asoslanganligi, boshqalarning ta'sirlariga va ishontirishlariga berilmaslik, insonning boshqacha emas, xuddi shunday harakat qilish uchun insonning obyektiv asosni ko‘rib chiqish qobiliyati»ligini ta'kidlaydi.

V.V.Davidov va M.A. Danilovlar «ijodiylik - yangi muammoni, yangi masalani ko‘ra olish va uni o‘z kuchi bilan echish ko‘nikmasidir» - desalar, I.Ya.Lerner «ijodiylik - bilish vazifalarini hal qilish va individual topshiriqni bajarish usulidir» -deb isbotlaydi.

G.P.Hedrovitskiy fikricha, «Tafakkur bilishning konstruktiv (qurilma) qobiliyati sifatida birinchidan, faoliyat jarayonida birlik va yaxlitlikka erishib

fikrlash faoliyati, ikkinchidan turli simvol (formula, sxema, jadval, diagramma va boshqa)lar ko‘rinishidagi tinitis fikrlashning natijasi o‘laroq g‘oya tarzida o‘zining tashqi ifodasiga erishadi. Ularning har biri o‘zida o‘ziga xos fikrlash mohiyatini namoyon etadi».

V.M.Rozin ta'kidlashicha, «Agar tafakkur insonning qobiliyati sifatidagi tasnifida zamonaviy tafakkurning talqinini ko‘rishni xohlasak, unda:

O‘zbekistonlik olimlar E.G`.G`oziyev, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalar ijodiy tafakkur muammosiga asosan pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan yondashadilar.

E.G`.G`oziyev tadqiqotida inson tafakkuri ijodiy va noijodiy tafakkurga ajratilishi ta'kidlanadi: «Tafakkurning ijodiyliги deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz, uning aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib, ijodiy ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunishdir. Maqsad, muammo va vazifalar o‘zga shaxs tomonidan qo‘yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o‘zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilish jarayonida biroz ishtirok etgan tafakkur esa noijodiy tafakkur deyiladi» .

Tafakkurning ijodiyliги aqlning sertashabbusliги, pishiqligi, va tanqidiyligida namoyon bo‘ladi. Aqliy sertashabbuslikda va erkin fikrlovchi shaxsning aqliy faoliyatini tashkil etishda o‘quv faoliyatining individual, guruhiy usullarining o‘zaro uyg‘unlashuvi sodir bo‘ladi. Mazkur faoliyatda kognitiv (bilish), motivatsion, konitiv (xulq-atvor) va fikr almashinuv singari qirralar birligi ta'minlanadi.

Shuningdek, E.G`.G`oziyev aqlning tanqidiyligi xususida fikr yuritib, o‘zining va o‘zgalarning mulohazalarini chin yoki chin emasligini tekshira bilishda hamda namoyon bo‘lgan mulohazalarga, muammolarga, muammoli vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligi obyektiv va subyektiv ravishda

ifodalanishini, agar tanqidiylik oqilona muhim belgilarga, muammo mohiyatini to'g'ri ochilishiga asoslanib amalga oshsa, bunday tanqidiylik obyektiv deyilishini, mabodo tafakkurning tanqidiyligi subyektiv xatolarga, umuman subyektivizmga og'ib ketsa, salbiy oqibatlariga olib kelishini ilmiy asoslab beradi.

V.Karimova, R.Sunnatova, R.Tojiboevalar ijodiy tafakkurni -«fikrni tarbiyalash, mantiqiylik, ijodiy tafakkur va ijodiy fikrni ifodalash muammolarining o'zaro uyg'unlashuvi»da ko'radilar. Inson hayotini fikrsiz, fikrlashsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mualliflar fikrning ijtimoiy mohiyatini ochib berishda «fikrlashni jamiyatga bog'liq hodisadir» - degan nuqtayi nazarga tayanib tushuntiradilar. Paydo bo'lgan yangi fikr odamni boshqalar bilan muloqotda bo'lish, ular bilan o'rtoqlashishga undaydi, aynan shu jihatning o'ziyiq fikrlashning ijtimoiyligidan dalolat beradi. Ular ijodiy fikrlash sifatlarini ham ko'rsatib o'tadilar. Bular:

a) elementar tafakkur jarayonlarining shakllanganligi - ya'ni tahlil qilish, analiz, taqqoslash, muhim jihatni ajratish;

b) tafakkurning faolligi, uning erkinligi, ya'ni nostandart g'oyalarning tuilishi jarayonidagi erkinlik va bir g'oyadan ikkinchisiga o'tishdagi egiluvchanlik;

v) tafakkurning tashkillanganligi va maqsadga yo'nalganligi, boshqacha aytganda, har bir inson tomonidan tafakkur yoki fikrlash jarayonlariga xoslikni anglash va uni nazorat qilishdir .

Professor V.Karimova o'z izlanishlarida, «o'zini anglagan, bilgan, hayotda o'z o'rnini his qilgan odamninggina miyasiga fikr keladi, tafakkur qiladi, qolaversa, u bu fikrlarni o'zgalarga izhor qilib, yetkazishi ham mumkin», «tarbiyalanganlik va ijodiy fikr uchun muhit kerak...» - deya ta'kidlaydi.

Hozir o'zbek psixologiyasida mazkur muammoning fundamental tadqiqi bilan shug'ullangan olim Z.T.Nishonova bo'lib, u o'zining «Ijodiy ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida ilk marta ijodiy fikrlash ijtimoiy psixologik omillar bilan bog'liq

bo'lgan shaxs xislati sifatidaligini tadqiq qilgan.

Z.T.Nishonova o'z tadqiqotlari natijalarining tahliliga ko'ra, «tafakkur ijodiyliigi - bu shaxsning bilimlarini o'zlashtirishda vujudga keladigan hukmlarni shaxsiy fikriga va e'tiqodiga o'tkazish qobiliyatidir» - deya ta'rif beradi. Tafakkur ijodiyliigi fenomenining asosiy tuzilishiga ko'ra birliklari hukmlar, fikrlar va e'tiqodlardir - deb o'z konsepsiyani isbotlaydi.

Demak, ijodiy fikrlash shaxsning shunday fikrlash qobiliyatiki, bunday fikrlash jarayonida inson narsa va hodisalar xususida o'z qarashlariga ega bo'ladi.

Ijodiy fikrlash faoliyatiga aniqroq ta'rif beradigan bo'lsak,

I j o d i y f i k r l a s h - bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatining birligi natijasi o'laroq, ijodiy ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash, aniqlashtirish, mavhumlashtirish kabi fikriy amallardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir.

Biz ijodiy tafakkur haqida fikr yuritish ekanmiz, albatta uning individual psixologik xususiyatlari xususida ham to'xtalishimiz joizdir. Zero, har bir kishining tafakkuridan farq qiluvchi xususiyatlari ham mavjud. Psixologik adabiyotlar tahlili asosida bu xususiyatlar sifatida:

- tafakkurning ijodiyliigi - bu o'z tajribasidan umumli va ijodiy foydalanib, atrofdagilar fikridan tashqari ijodiy o'z shaxsiy fikriga ega bo'lishda, yangi muammoni ko'ra olish va uni hal etish qobiliyati;
- tafakkurning tanqidiyligi -belgilangan me'yorlarga nisbatan o'z-o'ziga, boshqalarga qiyosiy bahosi;
- tafakkurning chuqurligi - obyekt mazmunini topishda, analiz qilish, taqqoslashda o'z ifodasini topishi;
- tafakkur ixchamligi - vazifani hal etishda optimal variantlar javoblarini topishda, keraksiz yo'lni o'zgartirish uquviga ega bo'lishi;
- fikr tezligi - insonning qisqa vaqt ichida kerakli optimal qarorni qabul qila olish qobiliyati;

- tafakkur rivojlanishining muhim ko‘rinishi - muhim tomonlarni ajrata bilish uquvi, barcha yangi umumlashtirishlarni ijodiy amalga oshira olishlikni kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Ilmiy izlanishlarimiz davomida boshlang`ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatishda ona tili ta’limi katta imkoniyatlarga ega ekanligini inobatga olib, umumta’lim maktablarining boshlang`ich sinflarida o‘quvchilar ijodiy fikrlash darajalarini bir qancha tadqiqot usullari yordamida aniqlashga harakat qildik.

1.2.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishning mazmuni

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish bir kunda yoki bir soatlik dars davomida amalga oshirilmasdan, balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar ta'sirida amalga oshiriladigan jarayondir.

Olib borilgan kuzatishlarga qaraganda ta'lim metodlarining barchasi ham o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish vositasi bo'la olmaydi. Ammo darsda turli metodlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga, bilimlarni egallash jarayonining zerikarli bo'lmasligiga erishish mumkin.

Ta'lim metodlari xilma-xil bo'lib, o'xshash xususiyatlariga ko'ra guruhlarga birlashtiriladi.

Ta'lim metodlarining tasnifiga oid turli qarashlar mavjud: ba'zi mutaxassislar ta'lim metodlarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olishsa, ayrim olimlar o'qituvchi faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqishadi, uchinchi bir guruh olimlar esa o'quvchilar faoliyatini e'tiborga olishadi. Ta'lim metodlariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy. Chunki ta'lim metodlari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan ham, bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Masalan, Yu.K.Babanskiy ta'lim metodlarini o'quvchilarning faoliyati nuqtayi nazaridan tasnif etadi. U ta'lim metodlarini uch guruhga ajratadi:

- o'quv-biluv faoliyatini uyushtirish va amalga oshirish metodlari;
- o'quv-biluv faoliyatini rag'batlantirish va asoslash metodlari;
- o'quv-biluv faoliyati samaradorligini nazorat qilish metodlari.

Har bir guruh, o'z navbatida, yana kichikroq guruhlarga ajratiladi. Masalan, birinchi guruh metodlariga quyidagilar kiradi: og'zaki bayon qilish, ko'rgazmali metodlar, amaliy metodlar, induktiv va deduktiv metodlar, muammoli-izlanish metodlari, ijodiy ishlash metodlari.

Rag`batlantirish va nazorat qilish metodlari ham o`z tarkibida guruhlariga ajratiladi.

Ta'limning muammoli metodi faqat o`qituvchini bilimlarni bayon etishga emas, balki o`quvchilarni ijodiy ravishda izlanishga, fikr yuritishga yo`naltirishi lozim.

A.G`ulomov va M.Qodirovlar xususiy metodlar, ya'ni ona tili ta'limi jarayonida qo`llaniladigan metodlar borasida to`xtalib o`tadilar. Ular ta'limni ikkiyoqlama jarayon ekanligini hisobga olib, ta'lim metodlarini ikki katta guruhga ajratadilar:

- O`qituvchi faoliyati bilan bog`liq metodlar.
- O`quvchi faoliyati bilan bog`liq metodlar .
- O`qituvchi faoliyati bilan bog`liq metodlar bilimlarni tayyor holda bayon etish va muammoli bayon qilish metodlariga ajratilgan.
- O`quvchi faoliyati bilan bog`liq metodlar guruhiga qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va izlanishga asoslangan metodlar kiradi.

Ta'lim metodlarini tahlil qilib chiqar ekanmiz, ulardan unumli va o`rnida foydalanish o`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatishda juda qo`l kelishini ko`ramiz.

Ammo ta'lim metodlarining barchasi ham boshlang`ich sinf o`quvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilmaydi. Binobarin, reproduktiv metod o`quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirishga ta'sir etmasa, muammoli izlanish metodi orqali bu borada yuqori natijalarga erishish mumkin.

Ta'lim jarayonida o`quvchilarning xilma-xil o`quv materiallarini hal qilishlari orqali izlanish g`oyasining joriy qilinishi ijodiy fikrlashga o`rgatish usullaridan biridir. O`quvchilar tafakkurining ijodiylikini shakllantirishda bu usuldan oqilona foydalanish g`oyatda samarali bo`lib, tadqiqotchilik ko`nikmalari va ishga ijodiy yondashishga yordam beradi.

Muammo - mohiyatiga ko`ra, zudlik bilan hal etilishi lozim bo`lgan masaladir. O`qituvchi o`quvchi oldiga muammo qo`yar ekan, uni hal qilish

yoʻlidagi harakat davomida oʻquvchi izlanadi, ijod qilishga intiladi, muammo ustida avvalgi tajriba va bilimga tayangan holda fikr yuritadi.

Oʻquvchilar taʼlim obyekti boʻlib qolmay, subyekti ham boʻlishlari lozimligi davr talabidir. Ular oʻqituvchining talabini shunchaki oʻzlashtirmay, balki oʻz shaxsiy tajribalari, aqliy rivojlanish darajalariga qarab faol oʻzlashtirishlari, qayta ishlashlari lozim. Taʼlim jarayonida ijodiy fikrlashga harakat qilishga qodir yosh avlodni tarbiyalash lozim. Shu bois koʻpgina olimlar va ilgʻor oʻqituvchilar oʻquvchilarda oʻquv faoliyatiga ijodiy va ijodiy yondashuvni tarkib toptirish yoʻlida izlanmoqdalar. Bu borada olib borgan izlanishlarimiz natijasi oʻlaroq, taʼlimning muammoli metodining oʻquvchilarni ijodiy fikrlashga oʻrgatishdagi oʻrni ustida alohida toʻxtalib oʻtish joiz. Bu metoddan foydalanish bilish jarayonining samaradorligini oshiradi, bilimlarni chuqur, ongli, mustahkam oʻzlashtirishga, ijodiy fikrlash va izlanishlar natijasida oʻziga xos kashfiyotlar qilish imkonini beradi.

Taʼlimning muammoli metodi nuqtayi nazaridan taʼlimdagi asosiy yoʻnalish oʻquvchilarda oʻquv topshiriqlarini hal etish, bilish va ijodiy fikrlash faoliyatini shakllantirishdir. Taʼlim jarayonida oʻquvchilar subyekt sifatida jalb qilinib, oʻqituvchi rahbarligida oʻzlari bilim oladigan sharoitga solinadi. Shu jarayonda yangidan yangi, murakkablashib boruvchi uzluksiz muammolarga daxldor taʼlim tashkil etiladi. Bunday taʼlimda butun bir dars bitta asosiy muammoni hal etishga bagʻishlanishi mumkin. Yoki bir dars davomida oʻrganilishi lozim boʻlgan oʻquv materialini bir qancha izchil muammolarga boʻlinishi mumkin. Muammolar ketma-ket hal qilingach, bilimlarni bir tizimga solish, umumlashtirish amalga oshiriladi.

Muammoli izlanish metodi oʻquvchilar oldiga muammoli savol yoki topshiriqlar qoʻyish, muammoli vaziyat yaratish, muammolarni hal etishga oʻquvchilarni jalb etish, ular faoliyatini nazorat qilish, yakuniy xulosalar chiqarishni oʻz ichiga olib, uning oʻquv muammosi, muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli topshiriq kabi kategoriyalari mavjuddir.

Oʻquv muammosi ilmiy bilish zaruriyatining subyektiv ifodasidir. U

muammoli vaziyatning in'ikosi, ya'ni ta'lim jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida yuzaga keluvchi obyektiv ziddiyatdir.

Umuman olganda, o'quv muammosi deganda o'quvchilar tomonidan ijodiy izlanishlar tufayli hal etilishi ko'zda tutilgan ziddiyatli masala tushuniladi.

Ziddiyatli masala esa o'ziga xos muammoli topshiriq, muammoli savol shaklida bo'lib, o'quvchilardan ijodiy fikr yuritishni talab etadi. Muammoning hal etilishi natijasida yangi bilimlar bilan qurollantiriladi.

Ayrim olimlar muammoli vaziyatni mavhum, ya'ni uncha aniq bo'lmagan va kam anglanadigan holat deb baholasalar, boshqa olimlar bilish va amaliy qiyinchilikni boshdan kechirayotgan subyektning psixologik holati, bilish va inson faoliyati o'rtasidagi ziddiyat sifatida baholaydilar. Jumladan, tadqiqotchi R.Ibragimov muammoli vaziyat deganda «topshiriqni bajarish jarayonida yuzaga keluvchi o'quvchining psixik holatini tushunamiz» deb ta'riflaydi.

A.G`ulomov va M.Qodirovlar ona tili ta'limi jarayonida muammoli vaziyat quyidagi hollarda yuzaga kelishini k o'rsatib o'tadilar:

-noma'lumni izlab topish, qiyinchilikni bartaraf etish zaruriyati tug'ilganda;

-ona tilidan egallangan bilimlarni yangi sharoitda qo'llash ehtiyoji yuzaga kelganda;

-muammoli topshiriq bilan uni bajarish usuli o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelganda.

Bizningcha, muammoli vaziyat muammolarni hal etishning yangi yo'llari va usullarini topish jarayonida yuzaga keladigan holatdir.

Muammoli savollar o'zlashtirilgan bilimlar asosida javob berishni taqozo qilishi bilan ajralib turadi.

Muammoli savollar «Nima uchun?», «Qanday tushunish mumkin?», «Siz nima deb o'ylaysiz?», «Sababi nimada?» kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin.

Shunga ko'ra, muammoli masalani berilgan topshiriqni to'g'ri bajarishga xizmat qiluvchi, maqsadga erishishga olib keluvchi, yangi, noma'lum bilimlarni

egallash ehtiyojini uyg'otuvchi amaliy yoki nazariy masala sifatida baholash mumkin.

Ta'lim jarayonida berilgan topshiriqni an'anaviy usullarda hal etish mumkin bo'lmasa, hal etishning yangi usulini qo'llash zaruriyati tug'iladi. Muammoli topshiriq shu tariqa yuzaga keladi.

Muammoli ta'lim boshqa o'quv predmetlarida bo'lgani kabi, shubhasiz, ona tilini o'qitish jarayonini takomillashtirishda ham muhim yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin. Chunki u o'quvchilarning bilish faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishga xizmat qiladi, darsga ijodiylik bag'ishlaydi va oxir-oqibatda o'quvchilarning aqliy rivoji uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Muammoli metod haqida V.Okon shunday fikr bildiradi: «Umumiy ko'rinishdagi muammoli ta'lim deganda, biz muammoli vaziyatlarni tashkil etish, muammolarni shakllantirish (o'quvchilarning o'zi shunga sekin-asta jalb etiladi), muammolarni hal etishda o'quvchilarga zarur yordam berish, ularni tekshirish, nihoyat sistemalashtirish jarayoniga rahbarlik va olingan bilimlarni mustahkamlash kabi harakatlar yig'indisini tushunamiz» .

M.I.Maxmudov muammoli metodning asl mohiyatini ma'lum va noma'lum ma'lumotlar o'rtasidagi ziddiyatlarda ekanligini ta'kidlab, shunday deydi: «Muammoli metod asosida tushunish va tushuntirish uchun ilgarigi bilimlar yetarli bo'lmagan, o'quvchiga ma'lum bilim, uquv va ko'nikma, yangi dalil, hodisalar o'rtasida dialektik ziddiyat kasb etuvchi o'quv muammosi yotadi».

Fikrimizcha, muammoli ta'lim o'quvchilar oldiga muammoli savol yoki topshiriqlar qo'yish, muammoli vaziyat yaratish, muammolarni ijodiy hal etish, izlanishga o'quvchilarni jalb qilish, yakuniy xulosalar chiqarish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Metodist olimlarimiz muammoli vaziyatlar yaratishning turli usullarini tavsiya etadilar. Masalan, metodist olim A.G'ulomov va M.Qodirovlar ona tili darslarida muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin, deb ko'rsatadilar:

1. Tilga oid dalillarni tahlil qilish asosida muammoli vaziyat yaratish.
2. Til hodisalarini qarama-qarshi qo'yish va taqqoslash asosida muammoli vaziyat yaratish.
3. Til hodisalarini umumlashtirish orqali muammoli vaziyat yaratish.
4. Berilgan matnning mazmunidan kelib chiqib, muammoli vaziyat yaratish.

Garchi, muammoli ta'lim turlicha tashkil etilsa-da, u hamisha ziddiyatlardan chiqish uchun faol izlanish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

Muammoli ta'limning ahamiyati o'quvchilarda bilish faoliyatini boshqarish masalalarini hal etishdagi o'rni bilan ham belgilanadi. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi mavjud obyektiv ziddiyatlar ta'limga muammoli yondashuvni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida muammolilikning bo'lishi mutlaqo tabiiydir. Shu bois darsda muammoli ta'limning material va o'quvchilar tayyorgarligiga imkon beradigan barcha muammolilik elementlaridan foydalanishga intilish lozim. Biroq tegishli o'quv qo'llanmalari va metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilmas ekan, muammoli ta'lim muammoligicha qolaveradi. Shu munosabat bilan nafaqat muammoli yondashuvga katta e'tibor berish kerak, balki shaxsiy tajriba va ilmiy izlanishlarga suyangan holda boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida muammoli ta'limdan unumli foydalanish bo'yicha tegishli o'quv qo'llanmalari va metodik tavsiyalar ishlab chiqish muhimdir.

O'qituvchi dars jarayonida tovush, harf, so'z, gap va uning turlari, bo'g'in hamda nutqqa doir bilish muammosini qo'yishda o'quvchilar eksperimental xarakterdagi ijodiy ishga jalb etiladi. O'qituvchi muammoli vaziyat yaratib o'quvchilarni uning hal qilinishi tomon yo'naltirar ekan, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish kabi tafakkur jarayonlaridan biriga ongli ravishda jalb qilish orqali bilimlarni mexanik tarzda eslab qolishdan ongli o'zlashtirishga yo'l ochadi. Bunda muammoli izlanish metodi mantiqiy tadqiqot metodlari bilan qo'shib ketadi va o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi usullardan yana

biri - mustaqil ish metodidir.

Nafaqat boshlang`ich sinflarda, balki umuman ta'lim sohasida keng qo'llaniladigan o'quvchilarning ijodiy ishlari ta'lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Metodist olimlar ijodiy ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki o'quvchilarning bilimlarni egallash va ijodiy fikrlashga o'rgatish, avvalambor, ijodiy ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarning echimini topish jarayonida shakllanadi.

Shunday ekan, o'quvchilarning ijodiy ishlari nima degan savolga to'xtalib o'tmoq joiz. Unga turlicha javob berganlar. Jumladan, ba'zi olimlar ijodiy ishlar deganda o'qituvchining bevosita yordamisiz, ammo uning nazorati ostida bajariladigan vazifalarni tushunishsa, boshqalari o'quvchilardan faol aqliy faoliyatni, tashabbuskorlikni, avval olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni talab qiladigan ishlar deb bilishadi.

Masalan, pedagogika fanlari doktori, professor A.G`ulomov ijodiy ishlarga shunday ta'rif beradi: «Ijodiy ishlar deganda biz, avvalo, o'qituvchining bevosita rahbarligida uyushtiriladigan hamda o'quvchilarning ona tilidan egallaydigan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladigan, ma'lum maqsadga qaratilgan faol ongli faoliyatni tushunamiz».

O.Roziqov esa ona tili darslarida qo'llaniladigan ijodiy ishlarni «o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, nazariy-amaliy materiallar ustida uyushtiriladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlaydigan grammatik, orfografik vazifalar» sifatida tushunadi.

Jumladan, S. Matchonov: «... ijodiy ishlar ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati o'quv topshiriqlarining o'qituvchi ishtirokisiz, bevosita o'quvchi tomonidan bajarilishi bilan belgilanadi va asosan matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi, qo'shimcha adabiyotlardan samarali foydalanishni nazarda tutadi» deb yozadi.

Bizningcha, mustaqil ishlar o'quvchilarning aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, o'qituvchining bavosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajariladigan vazifalar bo'lib, o'quvchilarning nafaqat bilim darajalarini, balki ularning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishlarini, ijodiy va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli amaliy faoliyatdir.

Ijodiy ishlar tasnifiga oid bir qancha qarashlar mavjud. Metodist olimlar guruhlariga ajratishda ijodiy ishlarning u yoki bu jihatlariga e'tibor qaratganlar.

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi jarayonida qo'llaniladigan ijodiy ishlarni tasniflashda faoliyat mazmuniga asoslanildi. Ya'ni:

Reproduktiv ijodiy ishlar.

Rekonstruktiv ijodiy ishlar.

Ijodiy ishlar.

Muammoli izlanish va ijodiy ish metodidan tashqari, boshlang'ich sinf ona tili darslarida faol qo'llanadigan didaktik o'yinlar ham o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi bilan o'quvchilarning hamkorlik faoliyati ta'lim subyekting o'zaro muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirish vositasi bo'lib qolmasdan, balki bu faoliyat o'quv materialini o'zlashtirish vositasiga ham aylanishi lozimdir. Ya'ni hamkorlik ikkiyoqlama faollik orqali amalga oshishi mumkin, uni takomillashtirish esa o'sha vositalar bilan qurollanishni taqozo etadi.

O'quvchilarning ta'limga ixlos qo'yishi o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq. Bunday hamkorlik o'zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, unda o'quvchi o'zini ta'lim obyekt deb emas, balki ijodiy va erkin harakat qiluvchi shaxs, deb biladi.

O'quvchining o'quv jarayoniga munosabati bu jarayonning qanday borishi, pedagog bilan o'quvchilar o'rtasidagi munosabat uslubi, o'quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, baholash tizimiga bog'liqdir.

Muammoli izlanish va ijodiy ishlash metodi, didaktik o‘ynlardan foydalanish jarayonida o‘quvchilar ijodiy faoliyatining o‘sishi o‘quv jarayonining shaxsni kamol toptirishga qay darajada yo‘naltirilganligiga, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishiga bevosita aloqadordir.

O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi munosabatlardagi rasmiyatchilikni tugatishga, ta'lim samaradorligini oshirish va ijodiy fikrlashga yordam beradi. Chunonchi, amalda o‘zaro hamkorlik darajasi ta'lim jarayonida ko‘tarilgan qo‘llar, o‘quvchilarning erkin faoliyati va hatto o‘zaro munosabatlari, raqobat va uyushqoqlik muhiti bilan beligilanadi. Bunday hamkorlik o‘rnatilgan ta'lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilar ustidan hukmronlik o‘rnatmasdan o‘zini teng tutsa o‘quvchilar o‘qituvchilari bilan erkin fikr almashadilar.

Shunga ko‘ra, o‘quvchilarning ijodiy fikr yuritish jarayonini o‘qituvchi bilan hamkorlik faoliyatiga chambarchas bog‘liq deyish mumkin. O‘qituvchilar o‘quvchilari bilan teng munosabat o‘rnatar ekan, beriladigan har qanday topshiriq quvonch bilan bajariladi, natijada ta'lim samaradorligi ham ta'minlanadi.

II BOB. Ona tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish usullari

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini muammoli ta'lim orqali ijodiy fikrlashga o'rgatish

Ona tili darslarida muammoli ta'lim o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini, savodxonlik darajasini oshirishda va ijodiy fikrlashga o'rgatishda muhim o'rin tutadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar tahlili va ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limiga muammoli yondashuvning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilashga imkon beradi:

Boshlang'ich sinflarda yuzaga kelgan o'quv muammolari o'zida qandaydir hayotiy vaziyatni namoyon etmog'i lozim. Dars jarayonida o'quvchilar e'tiborini jalb etish uchun hech bo'lmaganda bitta muammoli savolni o'rtaga tashlash lozim. Yuzaga kelgan muammoli vaziyatning xarakterli belgisi - bir vaziyatdan tabiiy ravishda ikkinchisiga o'tish, ayrim hollarda yangi vaziyatlarning paydo bo'lishidir;

- ona tilining o'quv predmeti sifatidagi ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati, hayot bilan yaqin aloqasiga ko'ra boshqa fanlardan keskin farqlanishidir;
- faqat boshlang'ich sinflarning ona tili darslari uchun xarakterli bo'lgan metodik usullarda ish ko'rilishida;
- o'quvchilarga o'quv materialining hissiy ta'sir etishida;
- faqat ona tili darslarida yuzaga keluvchi muammoli vaziyatlar tipologiyasida;
- boshlang'ich sinflar ona tili ta'limida nafaqat muammoli ta'lim, balki unga tayyorgarlik haqida ham gap boradi (hatto bilimlarni o'qituvchi muammoli bayon etgan sharoitda ham), chunki o'quvchilar bunday bayonni qabul qilishga oldindan psixologik, mantiqiy tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim;
- boshlang'ich sinflardagi muammoli ta'limda mashg'ullik elementi muhim rol o'ynashi bilan bog'liq. Mashg'ullikni muammoli vaziyat holatiga qadar olib borish kerak.

- Boshlang`ich sinf ona tili darslari yuzasidan olib borgan izlanishlarimiz natijasida muammoli vaziyat yaratishning quyidagi usullarini ishlab chiqdik:

- O`quvchilarni bayon qilinayotgan mavzudagi umumiylik va xususiylikni aniqlash maqsadida berilgan mashqlarni tahlil etish va qiyoslash. Masalan, 3-sinfda «o`zak va o`zakdosh so`zlar» mavzusini o`tayotganda «gul», «gulla», «gulzor» so`zlaridagi umumiylik va xususiylikni aniqlash topshirig`i berilishi mumkin.

Tanish topshiriqni hal etishda o`quvchilar oldiga yangicha yondashuvni talab etadigan amaliy topshiriqlarni qo`yish. Masalan, 1-sinfda o`quvchilar hali unli va undosh tovushlar bilan tanishmay turib, so`z necha bo`g`indan iboratligini faqat talaffuz qilish orqali aniqlaydilar. Unli va undosh tovush bilan tanishgach esa, unli tovushlar bo`g`in hosil qilishini bilib oladilar va shunga qarab so`zlarning nechta bo`g`indan iboratligini aniqlaydilar.

3.O`quvchilarning amaliy topshiriqlarni ijodiy bajarishda yuzaga keluvchi hayotiy vaziyatlardan foydalanish, ularni muammoni belgilash maqsadida tahlil etish. Masalan, 1-sinfda bo`gin ko`chirish qoidalari bilan tanishtirishda, bo`g`in ko`chirishning zarurligi misol tarzida keltiriladi. Ya'ni «sarkarda» so`zining keyingi ikki bo`g`ini qatorga sig`may qoldi. «Nima qilish kerak?» tarzida savol bilan murojaat qilinadi.

Ortiqcha ma'lumot berilgan yoki ma'lumotlar yetarli bo`lmagan mashqlar orqali muammoli vaziyat yaratish. Ortiqcha ma'lumotni yoki yetishmayotgan ma'lumotni topish uchun o`quvchilar yangi ma'lumotni bilishlari lozim bo`ladi va muammoli vaziyat yuzaga keladi. Masalan, 3-sinfda o`quvchilar bosh bo`laklar bilan tanishadilar. Gapda ega va kesimdan tashqari fikr yana ham to`liq bo`lishi uchun boshqa so`zlar ham ishtirok etadi. Bu so`zlarning qanday so`z yoki so`zlar ekanligini bilishlari uchun o`quvchilar ikkinchi darajali bo`laklar bilan tanish bo`lishlari lozim.

Dars maqsadini amalga oshirishda tegishli savollar yordamida muammoli vaziyat yaratib, o`quvchilarning hayotiy tajribalari orqali muammoni hal etish.

Bunday muammoli savollar «Nima uchun shunday yozilgan?», «To'g'rimi?», «Kim haq?» kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Masalan, 3-sinf «Ona tili» darsligida «Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar» mavzusini o'tishda o'quvchilarga «keldi-kelmadi» so'zlari misol tarzida keltiriladi va shunday savol beriladi «Nima uchun «kelmadi» so'zi bo'lishsiz fe'l deyiladi?».

Boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida muammoli ta'limni amalga oshirish quyidagi bosqichlarda o'tkaziladi:

-o'quvchilar yechishi mumkin bo'lgan va ular uchun qiziqarli muammolarni o'rta qo'yish.

- dars jarayonida o'quv materialini yuzasidan muammoli vaziyat yaratish;

-dars mavzusi mazmuniga ko'ra muammoli vaziyatni muayyan maqsadga yo'naltirish.

-muammolarni hal etish;

-alohida muammolarning jamoa usulida echilgan natijalarini tekshirish va xatolarni tug'rilash.

-alohida muammolarning yechimidan olingan natijalarni umumlashtirish va asosiy muammoning echimini aniqlash.

Muammoli darsni tashkil etishning mazkur sxematik rejasi boshlang'ich sinflarda va u yoki bu o'quv muammosiga qarab to'liq yoki qisman bajariladi. Bu o'rinda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar o'ziga xos xususiyatga egadir. Ulardan ba'zilari o'z yechimlari uchun avvalo xulosalarni, tushunchalarni, qonunlar va nazariyani tahlil qilishni talab etadi, boshqalari faktlarni umumlashtirishni talab qiladi, uchinchilari hodisalarni, tushunchalarni taqqoslashga ko'proq tayanadi va hokazo.

Muammoli vaziyatlarni yaratishda quyidagilarga amal qilish joiz:

➤ o'quvchilar ma'lum bilimlar doirasidan o'zlariga yetishmayotganlarini aniq chegaralab olishlari, ya'ni noma'lumni «ko'rishlari»;

➤ o'qituvchi yangi bilimga ehtiyoj uyg'otuvchi muammoli masalani darsdan avval loyihalashtirishi;

- har bir o'quvchining va butun sinfning alohida individual psixologik imkoniyatlarini qat'iy hisobga olishi;
- muammoli vaziyat yaratishni darsning istalgan bosqichida amalga oshirilishi (o'rganilganlarni takrorlashda, yangi materialni tushuntirishda, yangi mavzuni mustahkamlashda);
- -muammoli vaziyat yaratish uchun vosita sifatida o'qituvchi so'zi, darslik (qo'llanma) materiali, o'quvchilarning kuzatishlari natijalari, laboratoriya ishlari, ta'limning texnik vositalarini namoyish etish talab etiladi.

Tabiiyki, muammoli vaziyat muammoli savollar, tajribalar va laboratoriya ishlari yordamida yaratilishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi bilish vazifalariga «Faktlarni taqqoslang», «Faktlarni umumlashtiring» tipidagi talablarni ham qo'shadi.

Muammoli vaziyatlarning bu turlari shartli ravishda ajratilgan. Chunki amalda ko'p vaqt o'quvchilar bir tushunchaning o'zini o'rganishda faktlarni tahlil va sintez qilishni yoki taqqoslash va umumlashtirishni birga qo'shib olib boradi. Lekin aytib o'tilgan tafakkur shakllaridan biri - tushuncha yetakchi o'rinda turadi. Muammo qo'yib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilarni yana fikr yuritish, ammo endi faraz qilish, muhokama etish, xulosalar chiqarishga qaratadi. Bilish muammolarini ilgari surish va hal qilish jarayonlari uzluksiz zanjirga o'xshab qo'shib ketadi. Chunki muammoni ilgari surar ekanmiz, biz bir vaqtning o'zida uni hal qila boshlaymiz. Bu esa, o'z navbatida, yangi muammoni qo'yishga olib keladi. Umuman yangi didaktik tushunchani faol, muammoli bilishning bir-biriga zid va uzluksiz jarayoni amalga oshiriladi.

Ona tili ta'limi jarayonidagi muammoli hikoya va muammoli suhbatlar ham fikr yuritish, isbotlash, umumlashtirish, tahlil kabi tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar sanaladi.

Shu jihatdan 4-sinf «Ona tili» darsligiga nazar tashlansa undagi mashq topshiriqlari oldingi sinflarda egallangan bilimlarni eslash, shu asosida vazifalarni ijodiy bajarish, tegishli xulosalar chiqara olishga qaratilganini ta'kidlash mumkin.

Darslikda o'quvchilarning tildan amaliy foydalana olishlariga, og`zaki va yozma nutqning savodli bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan topshiriqlarga alohida e'tibor berilgan.

«Tug`ro - gerb»

«Fozil - bilimlarni egallab olgan odam» (5-bet).

«Alp - bahodir, paxlavon» (7-bet)

«Iqbol - baxtli taqdir, baxt, omad» va hokazo.

«Olqish - yaxshilik tilash so'zlari» (12-bet).

Ba'zi o'rinlarda so'zlarning ma'nosini izohlashga yo'naltirilgan topshiriqlarning berilishi o'quvchilarning so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, 2-mashqda «samo», 3-mashqda «horg`in», 4-mashqda «kulsin», 7-mashqda «piyoda» so'zlarining ma'nodoshlarini izlash natijasida topilgan so'zlar, shubhasiz, o'quvchilarning lug`atini boyitadi, dunyoqarashini kengaytiradi.

19-mashqda «o'qiydi», «keltiradi», «topadi», «so'zlaydi» so'zlarining qanday ma'noda qo'llanishi ustida izlanish natijasida tilning ichki qatlamlariga chuqurroq nazar tashlash imkoni tug`iladi.

Darslikda so'z ma'nosini izohlashdan tashqari, so'zlarni gapda o'rinli qo'llashga doir berilgan topshiriqlar o'quvchilar nutqini boyitadi hamda muammoni hal etish orqali mastaqil fikrlashga ham o'rgata boradi.

Lug`at ustida ishlashning yana bir usuli o'quvchidan qo'shimcha adabiyotlarni o'qishni talab etadi. Masalan, 14-mashq (10-bet)da 6 turdagi qovun rasmi berilgan bo'lib, «O'zbekistonda qovunning necha xil turi bor? Javobingizni yozing deyilgan. O'quvchiga bu mashq sharti bir kun oldin aytib yuboriladi. U otasonasi, bobo-buvilaridan javob izlaydi. (O'zbekistonda 15 dan ortiq qovun turi mavjud: qizilurug`, bosvoldi, doniyor, gurvak, qoraqosh va hokazo.)

104-mashq (46-bet)da qushlar, 112-mashq (50-bet)da gullar nomini aniqlab yozish, shuningdek, 3-mashq (6-bet)da «Gapni qanday harf bilan boshlaysiz?», 7-mashq (7-bet)da «Gapning oxiriga qaysi tinish belgilari qo'yilgan? Nima uchun?»

tarzidagi grammatik topshiriqlar ham ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan.

22-mashq (14-bet)da A.Akbarning «Insholardan ko'chirma» she'ri keltirilgan. She'rda bolalarning paxtani turli narsalarga o'xshatishi xususida so'z boradi. Mashq shartidagi «Siz paxtani nimaga o'xshatgingiz keladi? Bitta gap bilan yozing» topshirig'i o'quvchini jiddiy izlanishga da'vat etadi.

Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishda matnlarning asos qilib olinishini 4-sinf «Ona tili» darsligining jiddiy yutug'i sifatida qayd qilish joiz.

Ma'lumki, grammatik tushunchalar muammoli izlanish metodi asosida shakllantirilsa, uzoq vaqt esda saqlanadi. Har bir mavzuni tushuntirishda o'quvchilar matnni o'qish, yozish va tahlil qilish orqali o'z fikr-mulohazalarini aytishi kerak. Ularning fikr-mulohazalari darslikdagi nazariy tushunchalar yoki o'qituvchining izohi yordamida tasdiqlanadi. Masalan, 313-mashq (129-bet)ni bajarish jarayonida o'quvchi sifat so'z turkumiga doir so'zlarning yozilishini kuzatadi, tahlil qiladi va «Belgini kuchaytirib va ozaytirib ko'rsatadigan sifatlar qanday yoziladi?» savoliga javob qaytarish uchun izlanishga majbur bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda tilning fonetikasi ham, leksika, morfologiya va sintaksis ham gap, matn asosida o'zlashtiriladi. So'zning ifodalaydigan ma'nosi ham gap tarkibida oydinlashadi. So'z turkumlarining tildagi roli va vazifasi ham gap tarkibida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan boshlang'ich sinflarda har bir til hodisasi gap va matn tarkibida o'rganilishi maqsadga muvofiq.

Gaplarda so'zlarning sintaktik munosabati gap bo'laklarini belgilab beradi. Gap bo'laklari gapni shakllantiradi. Gap bo'laklaridan bosh bo'laklar 2-sinfda amaliy o'rgatiladi. 3-sinfda amaliydan elementar nazariy tushuncha sifatida o'rganishga o'tiladi. Bu sinfda o'quvchilar bosh bo'laklarning gapni shakllantirishdagi roli va ahamiyatini bilib oladilar. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari fikrni aniqlashtirishga, to'ldirishga yordam beradi.

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning gapdagi roli va vazifasi, gaplarni yoyiq va yig'iq holatga keltirish ularni taqqoslash usuli yordamida o'rganishni, mashqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Gap bo‘laklarini o‘rganishda quyidagi kabi mashq turlaridan foydalaniladi:

Gapning kim, kimlar, nima, nimalar haqida ekanini bildirgan so‘zni aniqlash.

Chiziqlar o‘rniga gapning kim (yoki nima) haqida ekanini bildirgan so‘zni qo‘yib o‘qish.

Gapning kim (yoki nima) haqida nima deyilganini bildirgan so‘zni topib o‘qish.

Aralash berilgan so‘zlardan gap tuzishda gapning kim (yoki nima) haqida ekanini bildirgan so‘zdan boshlash, gap oxiriga u haqda nima deyilgan so‘zni qo‘yish.

Qavs ichidagi so‘roqlarga mos gap bo‘laklarini qo‘yib o‘qish va yozish: (Nimalar) ko‘kardi - O‘tlar ko‘kardi.

Gapda ajratib berilgan so‘zga so‘roq berish orqali uning gapdagi vazifasini aniqlash.

Gapdan bosh bo‘laklarni va ikkinchi darajali bo‘laklarni so‘roqlar yordamida aniqlash.

Gap bo‘laklarini ma‘nodosh so‘zlar bilan almashtirish.

Gap bo‘laklarini chizmada tasvirlash.

Berilgan chizmaga mos gaplar tuzish va gap bo‘laklarini belgilash.

Bitta berilgan tayanch so‘zni qatnashtirib bir nechta gap tuzish va uni har bir gapda har xil gap bo‘lagi vazifasida qo‘llash.

Rasm asosida gap tuzish va gap bo‘laklarini o‘zlashtirishda, gap bo‘laklarining gapdagi tartibini, ot, sifat, fe‘l, sonlarning gap bo‘laklari bo‘lib kelishini, fikr ifodalashda nimalarga e‘tibor qaratish zarurligini amaliy bilib oladilar.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarning «Ona tili» darsliklari o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish orqali bog‘lanishli nutqini o‘stirish, ma‘naviyatini boyitish, shaxslik sifatlarini tarkib toptirishda katta imkoniyatlarga ega. Uni amalga oshirish turli metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Masalan, savod o‘rgatish davrida o‘quvchilar suhbat metodi vositasida harakat bildirgan

soʻzlarni topib nutqda qoʻllasalar, ona tili darsida koʻrgazmalilik metodiga koʻproq murojaat qilishi mumkin.

Bunda oʻquvchi qizning kitob oʻqiyotgan, yozayotgan, gʻovli supurayotgan holatlari tasvirlangan rasmlari koʻrsatilib, shular asosida «Oʻquvchi nima qilayotganini qisqacha izohlang» degan topshiriq berilsa, «Oʻquvchi oʻqiyapti, yozyapti, supuryapti» kabi harakat bildirgan soʻzlarga soʻroq berib koʻradilar va kimning harakatini bildirishini aniqlaydilar.

Sindikata metodidan foydalanganda esa, oʻquvchilar guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga alohida topshiriq beriladi. Masalan, 3-sinf «Ona tili» darsligidagi 283-mashqni bajarish jarayonida oʻquvchilar 6 ta guruhga boʻlinadi. Ularga mashq matnidagi bitta soʻz beriladi. Oʻquvchilar guruhi oʻzlariga berilgan fe'lga yaqin ma'noli fe'llar topib yozadilar.

1-guruh: sevinmoq, quvonmoq, xursand boʻlmoq, shodlonmoq, yayramoq;

2-guruh: sogʻaymoq, tuzalmoq;

3-guruh: tugatmoq, tamomlamoq, nihoyasiga etkazmoq, bitirmoq.

4-guruh: asramoq, saqlamoq, avaylamoq;

5-guruh: yugurmoq, chopmoq;

6-guruh: yigʻmoq, toʻplamoq.

Bayon qilingan fikr-mulohazalardan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

Boshlangʻich sinflarning «Ona tili» darsliklarida berilgan har bitta mashq oʻquvchilar uchun oʻziga xos jumboq boʻlib, ularni toʻgʻri bajarish oʻqituvchiga ham, oʻquvchilarga ham baravar tegishlidir. Mashqlar mavzu jihatidan oʻzaro bogʻliq boʻlsa-da, ularning har biri oʻziga xos yangicha yondashishni taqozo etadi.

Mustaqillikdan oldingi davr ta'limida mashqlar nazariy qoidalarga dalil-isbot tarzida keltirilgan boʻlsa, endilikda amaliy mashqlarni bajarish orqali nazariy qoida-xulosalar chiqarish koʻzda tutilgan. Bundan koʻzlangan maqsad mashqlarni shunchaki bajarish boʻlmay, ona tili qonuniyatlarini teran oʻzlashtirish, soʻz segʻrini oʻquvchilarning qalbdan his etishlariga, amalda undan toʻgʻri va unumli foydalanishlariga erishishdir.

Muammoli ta'lim faqat yaxshi o'zlashtiruvchilargagina emas, balki barcha o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, muammoli yondashuv qo'yilayotgan muammoga qiziqtirishi, eng real farazni tanlashga olib kelishi kerak.

Muammoli ta'lim o'quvchilar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish, axborot olish, ularga ijodiy fikrlash imkonini beradi.

Muammoli ta'lim bilim berish jarayonida o'quvchilar faoliyatiga tayanilishiga ko'ra ijodiy ish metodiga yaqin turadi va ko'pincha bu ikkala metod birgalikda qo'llaniladi.

Ijodiy ish metodi ham boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish usullaridan biri.

Barcha o'quv predmetlarida bo'lgani kabi boshlang'ich sinf ona tili darslarida ham o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda ijodiy ishlar muhim o'rin tutadi. Ular quyidagi xususiyatlariga ko'ra xarakterlanadi:

- ijodiy ishlarda bajarish so'ralgan shartlar o'quvchilardan izlanuvchanlikni talab qilishi;
- o'quvchilarni ijodiy holda hukm, xulosa va umumlashmalar chiqarishga yo'naltirishi;
- ijodiy ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tuilishi.

Tadqiqotning birinchi bobida boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida qo'llaniladigan ijodiy ishlarni guruhlarga ajratgan edik. Quyida mazkur guruhlarning ayrim turlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Reproduktiv ijodiy ishlar. Reproduktiv ijodiy ishlar o'quvchilarning avval olgan bilimlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi. Bunday ijodiy ishlarga namuna asosidagi ijodiy ishlar, Sharhlab yozish, grammatik topshiriqli diktantlar kiradi. Bu xildagi mashqlar o'quvchilarning ijodiy fikr yuritish jarayoniga qisman ta'sir ko'rsatadi va u ko'pincha darslik mashqlari asosida o'tkaziladi. Quyida darslikdan tashqari bo'lgan namuna asosidagi ijodiy ishlarning ayrim variantlarini keltiramiz.

«Poezd». Bunday ijodiy ishlardan 1-sinf ona tili darsida «Gap» mavzusini o‘tayotganda foydalanish mumkin.

Poezd vagonlari ko‘rinishidagi alohida qog‘ozlarga bitta gapning har bir so‘zi alohida-alohida yoziladi va aralashtirib yuboriladi. O‘quvchilarning vazifasi vagonlarni shunday terishi kerakki, natijada to‘g‘ri gap hosil bo‘lsin.

Masalan: Birinchi, Malika, sinfga, bordi.

To‘g‘ri javob: Malika birinchi sinfga bordi.

«Bo‘g‘inlarga bo‘ling». Bu ijodiy ish davomida o‘quvchilar «g‘uncha» jurnali yoki turli suratli kitobchalardan ma‘lum bir matnni bo‘g‘inlarga bo‘lgan holda ko‘chirib yozadilar. Shu orqali o‘quvchilarning bo‘g‘inlarga ajratish yoki bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga doir bilimlari mustahkamlanadi. Shu bilan birga, bosma harflarni yozma harflarga to‘g‘ri o‘girish, kitobdan to‘g‘ri ko‘chirish ko‘nikmalari rivojlanib boradi.

Sharhlab yozish. Sharhlab yozish mashqlaridan darslik yoki darslikdan tashqari mashqlar asosida darsning o‘tgan mavzularini mustahkamlash yoki yangi bilimlarni mustahkamlash jarayonida foydalanish mumkin. Buning uchun o‘quvchilardan biri berilgan so‘z yoki gapni ijodiy ravishda sharhlab (baland ovozda) yozadi. Qolgan o‘quvchilar ham «boshlovchi» o‘quvchining so‘zlarini tinglab yozib boradilar.

Masalan, birinchi sinfdan ona tilidan gap tuzish va tinish belgilarining qo‘llanishini tushuntirishga oid darsda o‘quvchilardan biri shunday gap tuzishi va uni sharhlab yozdirishi mumkin:

«Boshlovchi» o‘quvchi: Men shunday gap tuzdim: «Nigora nega kelmadi?»
Yozamiz. Xat boshidan, bosh harf bilan (bo‘ginlab, cho‘zib aytadi): «Ni-go-ra ne-ga kel-ma-di?». Gap tugadi. Gap oxirida so‘roq belgisi qo‘yiladi. Chunki gap so‘roq ma‘nosini bildiriyapti. Boshidan o‘qiyman, tekshiring: «Nigora nega kelmadi?».

Grammatik topshiriqli diktantlar. Grammatik topshiriqli diktantlar reja asosida bir soatlik dars davomida yoki o‘tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida

qo'llanishi mumkin. Buning uchun kichik hajmdagi diktantlar yozdiriladi va o'quvchilarga grammatik topshiriqlar ham beriladi. 1-sinfda grammatik topshiriqli diktantlarda topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Fonetik topshiriqlar (unli yoki undosh tovushlar tagiga chizing). Masalan: olma, anor.

So'zlarni bo'g'in ko'chirish qoidasiga muvofiq bo'lib yozing. Masalan: bo-la-lar.

Nuqtalar yoki pauza o'rniga gap ma'nosiga mos harakat (nom, belgi) bildirgan so'zlarning mosini qo'ying. Masalan: Ariqlarda suvlar ... oqadi (jildirab).

Nom bildirgan so'zlar tagiga bir chiziq, harakat bildirgan so'zlar tagiga ikki chiziq chizing. Masalan: Ot kishnadi.

Ketma-ket kelgan bir xil undoshlar tagiga chizing. Masalan: Duradgor taxtani arraladi.

Rekonstruktiv ijodiy ishlar. Rekonstruktiv ijodiy ishlarni o'tkazish jarayonida o'quvchilar muammoni hal etish uchun avval olgan bilimlarini faqat xayolda qayta tiklabgina qolmay, balki muammoni hal etish yo'llarining mavjud umumiy tushunchalardan qaysi biriga mos kelishini o'rganadilar. Bu tipdagi ijodiy ishlarga bayon, shaxsni o'zgartirib hikoya qilish, tahlil qilish, test topshiriqlari, tarqatma materiallar asosidagi ijodiy ishlar misol bo'la oladi.

Bayon. Bayon o'quvchilarning yozma ijodiy ish turlaridan biri bo'lib, matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng qayta yozish jarayonida o'quvchilarning nutqi boyiydi, savodxonlik darajasi o'sadi, ijodiy fikrlashga o'rganadi.

Boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida bayon quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

O'qituvchi matnni ifodali o'qib eshittiradi va qayta hikoya qiladi.

1-2-sinflarda o'quvchilar tayyor reja bilan tanishtiriladi. 3-sinfda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda reja tuzadilar, 4-sinfda o'quvchilarning o'zlari ijodiy reja tuzadilar.

3. O'quvchilar reja asosida matnni 1-2 marta qayta hikoya qiladilar.

O'qituvchi o'quvchilar tushunmagan so'z va jummalarning ma'nosini tushuntirib beradi, yozilishi qiyin bo'lgan so'zlarni xattaxtaga yozib ko'rsatadi. O'quvchilar bayon yozishga kirishadilar.

Bayonlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Savollar asosida yoziladigan bayon
2. Darak gaplardan iborat reja asosidagi bayon
3. Sarlavha qo'yib bayon yozish
4. Rasmi reja asosidagi bayon
5. Ijodiy bayon

Bu bayonlarning barchasidan ham ta'lim jarayonida keng foydalanish mumkin. Ammo ularning faqat 2 turi, ya'ni rasmi reja asosidagi bayon va ijodiy bayonlar o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Rasmi reja asosidagi bayon. Bunday bayon biror bir voqeani yoki ertakni aks ettiruvchi suratlar asosida o'tkaziladi. O'qituvchi voqealar ketma-ketligi aks etgan suratlarni tartib bilan terib qo'yadi, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda hikoya tuzadilar. Yozilishi qiyin bo'lgan so'zlarni o'qituvchi yozib ko'rsatadi, o'quvchilar reja asosida bayon yozishga kirishadilar.

Rasmi reja asosidagi bayon ertaklar asosida yoki yil fasllarida bo'ladigan tabiiy o'zgarishlar haqida yozilishi mumkin. Bunday bayonlarni yozishda o'quvchilarga ijodiy fikrlash uchun imkoniyatlar juda keng.

Ijodiy bayon. Bunday bayonlarni yozishda o'qituvchi matnning ma'lum bir qismini o'qib hikoya qilib beradi. Shundan so'ng o'quvchilarning bir nechtasi og'zaki hikoya qiladilar va voqealar rivoji qanday bo'lishi haqida fikrlashadilar. Reja tuziladi. O'qituvchi yozilishi qiyin bo'lgan so'zlarni yozib ko'rsatadi va o'quvchilar bayon yozishga kirishadilar.

Bunday bayonni o'tkazish jarayonida o'quvchiga ijodiy ravishda hikoyani davom ettirishga imkon beriladi.

Masalan, «Musicha» matni asosida quyidagicha bayon yozish mumkin:

Musicha

Abdulla hovlida qanoti singan musichani ko‘rib qoldi. U musichani olib . . .

Reja:

Abdulla hovlida nimani ko‘rib qoldi?

U qanday yo‘l tutdi?

Shaxsni o‘zgartirib hikoya qilish. Bunday ijodiy ishlar darslikdagi matnlar yoki darslikdan tashqari bo‘lgan matnlar asosida o‘tkaziladi. O‘quvchilarga birinchi shaxs nomidan hikoya qilingan matnlarni ism qo‘yib uchinchi shaxs nomidan hikoya qilish yoki uchinchi shaxs nomidan hikoya qilingan matnni birinchi shaxs nomidan hikoya qilish topshiriladi. Bu xildagi ijodiy ishlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va ijodiy fikrlash darajasi oshib boradi. Misol:

«Men bu yil 1-sinfga bordim. O‘qituvchimiz bizni yaxshi kutib oldilar. Sinfdoshlarim bilan tezda do‘stlashib ketdik. Biz yaxshi o‘qishga harakat qilamiz».

3-shaxs tomonidan hikoya qilinishi:

«Laylo bu yil 1-sinfga bordi. Uni o‘qituvchi yaxshi kutib oldi. Laylo sinfdoshlari bilan tezda do‘stlashib ketdi. Ular yaxshi o‘qishga harakat qiladilar».

Tahlil g‘ilish. Boshlang‘ich sinflarda fonetik va morfologik tahlil turlaridan foydalaniladi. Tahlil jarayonida obyekt sifatida so‘z yoki gap olinishi mumkin. Fonetik tahlil jarayonida so‘zda nechta unli va nechta undosh tovush qatnashganligi, yonma-yon kelgan bir xil undoshlar bo‘lsa ularni ko‘rsatish, talaffuzda tushirib qoldiriladigan yoki o‘zgaradigan undosh tovushlar bo‘lsa ko‘rsatish talab etiladi.

Morfologik tahlil jarayonida esa gapdagi so‘zlar qanday savollarga javob bo‘lishi, qanday ma‘no anglatishi, gapda qanday vazifada kelishi kabilarni ko‘rsatish talab etiladi.

Ijodiy ijodiy ishlar. Ijodiy ijodiy ishlar o‘quvchilardan topqirlik va ijodkorlikni talab qiladi. Insho, ijodiy diktant shu xildagi ijodiy ishlarga misol bo‘la oladi. Bunday ijodiy ishlar, ko‘pincha, darslikdan tashqari manbalar asosida

o‘tkaziladi.

Insho. Insho o‘quvchilarning ijodiy ish turlaridan biri bo‘lib, 2-sinfdan boshlab 5-6 gapdan iborat insho yozdiriladi. 3-4-sinflarda esa inshoning hajmi va mazmuni kengaytirib boriladi.

Insho o‘quvchilardan faollik, voqea va hodisalarni ijodiy baholash, qiyoslash va xulosa chiqarishni talab qilishi bilan ijodiy ishlarning boshqa turlaridan ajralib turadi.

Boshlang‘ich sinflarda insho asosan o‘quvchilarning darslik materiallari, suratlar va filmlardan olgan taassurotlari, ko‘rgan-bilganlari va eshitganlari asosida o‘tkaziladi.

Insho yozish jarayonida o‘quvchilar material to‘playdilar, bir tizimga soladilar, reja tuzadilar (4-sinfda), so‘z tanlaydilar, gap tuzadilar va ularni mantiqiy jihatdan bog‘laydilar, so‘zlar imlosiga e‘tibor beradilar. Bunday aqliy faoliyat o‘quvchilardan aqliy imkoniyatlarini to‘la ishga solishni, faollikni talab etadi va quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1.Tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda insho yozish uchun material to‘planadi, ya‘ni sayohatga yoki ekskursiyaga chiqiladi, badiiy yoki hujjatli filmlar tomosha qilinadi, adabiyotlar yoki tegishli suratlar bilan tanishib chiqiladi. Bu bosqich insho yozishdan bir necha kun oldin boshlanadi.

2.Asosiy bosqich. Bu jarayonda insho yozish quyidagi etaplarda amalga oshiriladi:

1.O‘qituvchi mavzuni o‘quvchilar bilan birgalikda muhokama qiladi.

2.Tayyorgarlik jarayonida to‘plangan materiallar tartibga solinadi.

3.Reja tuziladi. Rejani 2-sinfda o‘qituvchi tuzib beradi, 3-sinfda o‘quvchilar bilan hamkorlikda tuziladi, 4-sinfda esa o‘quvchilar ijodiy tuzadilar.

4.Lug‘at ishi o‘tkaziladi. O‘qituvchi yozilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar, ayrim so‘zlarning sinonimlari va iboralarni yozib ko‘rsatadi.

3.Yakuniy bosqich. Bu bosqichda o‘quvchilar o‘zlari yozgan insho matnini tekshirib chiqadilar, kamchiliklar bo‘lsa to‘ldiradilar, xatolarini tuzatadilar.

Boshlang`ich sinflarda insho sodda usuldagi 3-4 bo`limdan iborat reja asosida yoziladi. Rejalar shakliga ko`ra so`roq yoki darak gaplar (4-sinfda) asosida bo`lishi mumkin.

Boshlang`ich sinflarda yoziladigan insholar mazmuniga ko`ra hikoya, tasvir va muhokama tarzidagi insholarga bo`linadi. Ular orasida qat'iy chegara bo`lmay, bir inshoda turli janr elementlari uchrashi mumkin. Quyida ana shu insholarning ayrim turlariga namuna keltiramiz.

hikoya janridagi insho. hikoya janridagi inshoda mavzu yuzasidan 1-shaxs yoki 3-shaxs nomidan hikoya tuziladi hamda so`roq yoki darak gaplardan iborat reja asosida yoziladi.

Rasmi reja asosidagi insho shu tipdagi bayonga o`xshaydi. Ammo bayon tayyor matn asosida o`tkazilsa, insho notanish voqea-hodisalar aks etgan rasmlar asosida o`tkaziladi. Bunday insholarni yozish jarayonida o`quvchilarga erkin ijod qilish imkoni beriladi, ya'ni rasmlarda aks etmagan voqea va hodisalar haqida ham qo`shimcha qilish mumkinligi tushuntiriladi.

Inshoni yozishdan avval tayyorgarlik jarayonida o`quvchilar rasmlar bilan tanishtiriladi. Mavzu e'lon qilingach, o`qituvchi rasmlar seriyasini ketma-ket terib qo`yadi. Lug`at ishi o`tkaziladi va o`quvchilar inshoni yozishga kirishadilar. Masalan, «Ona tabiat» yoki «Yil fasllari» mavzusidagi inshoni yozishda yil fasllari o`zgarishi barobarida tabiatda bo`ladigan o`zgarishlar aks etgan rasmlardan foydalanish mumkin.

So`roq gaplardan iborat reja asosidagi insho savollarga javob tarzida o`tkaziladi. Ijodiy ish sifatida bunday inshoda ham erkin ijod qilish imkoni beriladi. Misol tarzida «Onajonlar bayrami» mavzusidagi insho rejasini keltiramiz.

Reja:

- 1.Biz onalarimizni nima uchun hurmat qilamizg`
- 2.Onajonlar bayrami qachon nishonlanadi?
- 3.Siz onajoningiz bayramiga qanday sovg`a tayyorladingizg`

Xuddi shu rejani darak gaplarga aylantirganda quyidagicha bo`lishi mumkin.

Ona - buyuk zot.

Onajonlar bayrami.

Onajonim bayramiga sovga.

Tasviriy insho. Tasvir elementlari mavjud bo'lgan insho ham boshlangich sinflarda keng qo'llanilib, syujetli suratlar yoki sayohat va ekskursiyadan keyingi taassurotlar asosida ma'lum tayyorgarlikdan so'ng o'tkaziladi.

Suratlar asosidagi tasviriy insho darslikdagi yoki darslikdan tashqari bo'lgan suratlar asosida o'tkaziladi. Masalan, «Bog`da» mavzusidagi inshoni bolalarning bog`bonga bog`da mevalarni terishga yordamlashayotganlari tasvirlangan surat asosida o'tkazish mumkin.

Sayohat yoki ekskursiya asosidagi tasviriy inshoni o'tkazishdan bir yoki bir necha kun avval tabiatga, ishlab chiqarish korxonasi yoki shaharga (yoziladigan insho mavzusiga qarab) sayohat uyushtiriladi va insho yozishga tayyorlaniladi. Olingan taassurotlar bir tizimga solinadi va reja asosida insho yozishga kirishiladi. Masalan, «Kuz keldi» mavzusidagi inshoni yozish uchun sentyabr, oktyabr, noyabr oylarida maktab bog'iga sayr uyushtiriladi va shu sayr taassurotlari asosida yoziladi.

Muhokama janridagi insho. Muhokama janridagi insho alohida bir badiiy asar, qo'g'irchoq teatrining tomoshasi, multfilm yoki filmlar tomoshasidan so'ng biror bir mavzu muhokamasiga bag'ishlab o'tkaziladi. Masalan, «Filchaga maktub» multfilmini tomosha qilgandan so'ng olingan taassurotlar asosida «Filcha nega izza bo'ldi?» mavzusida insho o'tkazish mumkin.

Ijodiy diktant. Ijodiy diktant boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashga, og'zaki va yozma nutqni hamda ijodkorlik va ijodiylikni rivojlantirishga yordam beradi. Ijodiy diktant quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

Berilgan so'zlardagi tushirib qoldirilgan harf o'rniga mos harflarni topib yozish. Masalan, bo...a, ki...ob.

Nuqta o'rniga gap mazmuniga mos so'z topib qo'yish. Masalan,

«Kitob - ... manbai» (bilim).

Berilgan savolga ijodiy javob topib yozish. Masalan, «Kim maktabda o‘qiydi?» (O‘quvchi maktabda o‘qiydi).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatish maqsadida qo‘llaniladigan ijodiy ish turlarini ona tili darsliklari bo‘yicha tahlil qilamiz. 1-sinf ona tili darsligi «Tovushlar va harflar», «So‘z», «Nutq. Gap» bo‘limlaridan iborat.

«Tovushlar va harflar» bo‘limida fonetik tahlil (10-, 20-, 29-, 55-, 60-, 61-, 76-mashqlarda) usulidan foydalanish mumkin. Masalan, 10-mashqning birinchi gapini ko‘chirib yozib, unli tovushlar tagiga chizish topshirii berilgan. Gapning har bir so‘zini bitta o‘quvchi tahlil qiladi. Masalan, «Sherdor» so‘zida 2 ta unli tovush bor - e va o tovushlari.

«Sharhlab yozish» usuli 24-, 37-, 51-, 72-mashqlar asosida o‘tkaziladi. Masalan, 72-mashqda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib matnни to‘laligicha ko‘chirish sharti berilgan. U shunday o‘tkaziladi: «O‘qiyman: «Do‘lana - tog` mevasi» «Do‘lana» so‘zi ajratib ko‘rsatilgan. Uni bo‘g‘inlarga bo‘lamiz: «Do‘-la-na». Yozamiz, bosh harf bilan: «Do‘-la-na - tog` mevasi». Gap tugadi, nuqta. Tekshiramiz: «Do‘lana – tog‘ mevasi».

«Bo‘g‘inlarga bo‘ling» usulidan 68-, 69-mashqlarda foydalanish mumkin.

«Poezd» usulidan 73-,79-mashqlarda foydalanish mumkin. Masalan, 73-mashqda o‘qituvchi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib alohida qog‘ozlarga yozadi. O‘quvchilar shu bo‘g‘inlardan so‘z hosil qiladilar: «qo‘n-g‘i-zi-ni» kabi.

Grammatik tahlil 98-, 103-, 106-, 134-, 161-mashqlar asosida o‘tkaziladi. Masalan, 103-mashqda she'r ko‘chirib yoziladi va og‘zaki tahlil qilinadi.

Grammatik topshiriqli diktant 114-,135-, 137-, 143-, 161-, 163-mashqlar asosida o‘tkaziladi. Masalan, 137-mashqda she'rning bir qatori diktant qilib yozdiriladi: «Qizil yuzli bir pari» Topshiriq: «Qanday so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘z tagiga to‘lqinli chiziq chizing».

«Nutq. Gap» bo‘limida quyidagi ijodiy ish turlaridan foydalaniladi.

«Shaxsni o'zgartirib hikoya qilish» usulini 166-,169-,171-,192-mashqlarda qo'llash mumkin. Masalan, 166-mashqdagi matn Anvar ismli bola haqida. O'quvchilarga Anvarning o'rniga o'zini qo'yib hikoya qilish topshiriladi.

Grammatik tahlil. 179-,189-mashqlardagi gaplar grammatik tahlil qilinadi. Masalan, «Men Sojidaning qishlog'iga bordim» gap tugadi. Gap oxiriga nuqta quyiladi. Gap to'rtta so'zdan iborat.

«Poezd» usulini 170-, 183-mashqlarda qo'llash mumkin. «dalamiz, Qishloqda, katta, bor» so'zlaridan gap hosil qilinadi: «Qishloqda katta dalamiz bor».

«Sharhlab yozish» 174-mashq asosida o'tkaziladi. Masalan, o'quvchilar «Buvingiz sizga nimalar aytib beradi?» savoliga javob yozadilar va tinish belgilarini qo'yadilar.

2-sinf ona tili darsligi to'rt bo'limdan iborat.

«Tovushlar va harflar» bo'limida birinchi sinf materiallari takrorlanadi va jarangli, jarangsiz undoshlar, yonma-yon kelgan undoshlar kabi tovush va harflarga doir yangi ma'lumotlar beriladi. Bu bo'limda darslik asosida quyidagi ijodiy ish turlaridan foydalaniladi.

«Sharhlab yozish» darslikdagi 5-, 10-, 20-, 37-mashqlar asosida o'tkaziladi. Masalan, (10-mashq) «O'qiyman: «Nargiza Abdullaeva - mening dugonam». Yozamiz, bosh harf bilan: «Nargiza» yana bosh harf bilan «Abdullayeva tire «mening dugonam» nuqta. Kishilarning ismi va familiyasi bosh harf bilan yoziladi. Tekshiramiz: «Nargiza Abdullayeva -mening dugonam.»

Fonetik tahlilni 33-mashqda o'tkazish mumkin. Masalan, «Oila budjeti». «Oila» so'zida 1 ta l undosh tovushi bor. Ikkinchi so'zda 4 ta b, d, j, t undosh tovushlari bor.

Test usulini 17-mashqda qo'llash mumkin. Masalan, «Odob» so'zida nechta unli harf va bo'g'in bor?»

2 ta unli harf, 1 ta bo'g'in B) 2 ta unli harf, 2ta bo'g'in

3 ta unli harf, 3ta bo'g'in.

Fonetik topshiriqli diktantlar. 13-, 14-mashq matni diktant qilib yozdiriladi va soʻz maʼnosini farqlaydigan harflar tagiga chizish topshirii beriladi.

Bayon 2-sinfдан boshlab 30-45 soʻzli matn yuzasidan uch-toʻrt soʻroq garlardan tuzilgan reja asosida oʻtkaziladi. «Tovush va harflar» boʻlimida 35-mashq asosida oʻtkazish mumkin.

«Soʻz» boʻlimida sharhlab yozish 161-, 169-, 256-, 261-mashqlar asosida oʻtkaziladi.

168-, 250-, 267-mashqlar grammatik tahlil qilinadi.

Testdan 172-, 174-, 248-mashqlarda foydalaniladi.

199-, 205-, 224-, 240-mashqlar matni diktant qilib yozdiriladi va qoʻshimcha topshiriqlar beriladi.

«Poezd» usulidan 194-, 242-, 243-mashqlarda foydalanish topshiriqini qiziqarli qilib oʻtkazishga yordam beradi.

176-, 191-, 196-, 203-, 209-mashqlarni bayon tarzida bajartirish mumkin.

«Gap» boʻlimida quyidagi ijodiy ish turlaridan foydalaniladi:

«Sharhlab yozish» usuli 269-, 274, 294-, 297-mashqlar asosida, test 289-290-mashqlarda, grammatik tahlil 266-, 267-, 271- mashqlar asosida, bayon 287-mashq asosida va grammatik topshiriqli diktant 273-mashq asosida oʻtkaziladi.

3-sinf ona tili darsligi [79] «Gap», «Soʻz tarkibi», «Soʻz turkumlari» boʻlimlaridan iborat.

«Gap» boʻlimida «Sharhlab yozish» usuli 86-, 87-, 90-, 106-, 137-mashqlar asosida oʻtkaziladi.

107-, 110-, 125-, 134-mashqlarni «Poezd» usulida oʻtkazish qulay.

94-, 97-, 110-, 119-mashqlardagi gaplar grammatik tahlil qilinadi.

Test 148-mashq asosida tuzib foydalanish mumkin. 115-mashkni esa bayon shaklida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

«Soʻz tarkibi» boʻlimidagi 139-, 157-, 161-, 172-, 175-mashqlar «Sharhlab yozish» usulida amalga oshiriladi.

172-mashq «Poezd» usulida amalga oshiriladi. 141-, 161-, 178-mashqlar esa

grammatik tahlil qilinadi. 144-, 152-mashqlar bayon shaklida amalga oshiriladi.

168-, 173-mashqlar matni diktant qilib yozdirilib, qo‘shimcha topshiriqlar beriladi.

Boshlang‘ich sinfda lug‘at ishlari faqat grammatik bilim va malakalarni mustahkamlash uchungina emas, balki o‘quvchilarning lug‘atidagi so‘zlarni faollashtirish va kengaytirish, ulardan o‘rinli foydalana olish uchun ham xizmat qilishi kerak. Masalan, «qo‘yish uchun so‘zlar» berilganda bir o‘ringa bir necha so‘z berilsa, o‘quvchi ulardan mosini tanlash uchun fikrlashga majbur bo‘ladi.

280-mashqda yana «Otasi uni - (oldi)» gapi berilgan. Qo‘yish uchun so‘zlarda «oldi» fe‘li bilan birga, «quchoqladi», «erkaladi», «ochomladi», «siladi», «ko‘tardi» kabi fe‘l so‘z turkumiga oid bir nechta so‘z berilganda, o‘quvchilar ular ichidan o‘ziga ma‘qulini va gapga mosini tanlar edi. Tuzilgan gaplar ham har xil bo‘lar edi.

4-sinf ona tili darsligi «Takrorlash» va «So‘z turkumlari» bo‘limlaridan iborat.

«Takrorlash» bo‘limida quyidagi ijodiy ish turlaridan foydalaniladi:

3-, 59-mashqlarni «Poezd» usuli yordamida bajartirish mumkin.

«Sharhlab yozish» usulidan 16-, 20-, 23-, 34-, 42-, 63-, 96-mashqlarni bajarishda foydalanish yaxshi samara beradi.

27-, 36-mashqlarni o‘quvchilarga diktant qilib yozdirib so‘ng grammatik topshiriqlar berish mumkin.

33-, 90-, 99-mashq matnlari asosida bayon tashkil etish o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatadi.

«Shaxsni o‘zgartirib hikoya qilish» usulidan 13-, 76-mashqlarda foydalanish mumkin.

103-, 111-, 116-mashqlar fonetik tahlil qilinadi.

45-, 48-, 78-, 134-mashqlar grammatik tahlil qilinadi.

4-sinfda ot, sifat, son, kishilik olmoshi va fe‘l so‘z turkumlari haqida nazariy va amaliy ma‘lumotlar beriladi. Bu bo‘limlarda ham «Poezd» usulidan (243-, 330-,

368-, 402- mashqlar asosida), «Sharg`lab yozish» (166-, 194-, 216-, 249-, 282- mashqlar asosida), morfologik tahlil (169-, 269-, 358-, 407-mashqlar asosida), «Shaxsni o`zgartirib hikoya qilish» usulidan (208-, 331-, 333-, 348-, 351-, 427- mashqlar asosida), bayon (226-, 271-, 342-, 378-mashqlar asosida), ijodiy diktantlardan (435-, 444-, 455-mashqlar asosida) foydalanish o`quvchilar bilimini mustahkamlash bilan birga ijodiy fikrlash qobiliyatini ham o`stirishga yordam beradi. Ona tili ta'limini o`qituvchi va o`quvchilarning teng munosabatlari asosida tashkil etish jamiyatda tub burilishlar yuz berayotgan, ilm-fan, texnika shiddat bilan rivojlanayotgan davrning muhim talablaridan biridir.

Ijodiy fikrlashga ehtiyoj vaziyatini vujudga keltirish ijodiy ishlarni to`g`ri uyushtirishning muhim sharti ekanini unutmaslik joiz.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishda didaktik o'yinlardan foydalanish

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida qo'llaniladigan har qanday metodlar o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'yin tarzida qo'llanilishi ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar ham o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish vositasi sanaladi. Didaktik o'yinlarga dam olish yoki vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'lim beruvchi faoliyat deb qarash lozimdir.

O'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'yin dunyoni va o'zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

A.Ya.Bobomurodova ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini o'yin xarakterida qurish lozimligini ta'kidlaydi va shunday deydi:

«Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni ijodiy faoliyat ko'rsatishga, o'rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini anglab, ijodiy ravishda hukm va xulosalar chiqarishga, har bir o'quvchiga o'zligini namoyish etish va mulohazalarini erkin bayon etib, o'z nuqtai nazarini g'imoya qilishga keng imkoniyat yaratadi. Tezkorlik, sezgirlik, topqirlik, qat'iylik, o'quv qiyinchiliklarini ijodiy yengish kabi fazilatlarni tarkib toptirish, ko'pincha, ta'limiy o'yinlar orqali amalga oshiriladi».

Ko'rinadiki, metodist A.Ya.Bobomurodova ta'limiy o'yinlarning mohiyati va til o'rganishdagi ahamiyatini to'la ochib bera olgan.

L.V.Artemova esa ta'limiy o'yinlarning muhim jihatlari, vazifasi va ahamiyati haqida shunday deydi: «Didaktik o'yinlarning muhim jihatlari shundaki, o'quv topshiriqlari bolalarga o'yin shaklida taqdim etiladi. Bolalar o'yin jarayonida bilimlarni o'zlashtirayotganlari, ma'lum predmetlardan foydalanish malakalarini va o'zaro muomala madaniyatini egallayotganlarini sezmaydilar. Har bir didaktik o'yin ta'limiy va tarbiyaviy mazmuni, o'yin topshiriqlari, o'yin harakatlari, o'yin

va tashkiliy munosabatlardan iborat bo‘ladi».

Biz didaktik o‘yinlarni mazmuniga ko‘ra tinch o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, aralash tipdagi o‘yinlar; shakliga ko‘ra musobaqa o‘yinlari, sahna o‘yinlariga ajratdik.

harakatli o‘yinlarga ona tili ta'limi jarayonida qo‘llaniladigan musiqali o‘yinlar va sahna o‘yinlarini misol qilib keltirish mumkin.

Aralash o‘yinlar o‘zida ham harakatli o‘yinlar, ham tinch o‘yinlar elementlarini aks ettiradi.

Tarqatma materiallar asosida uyushtiriladigan o‘yinlar, so‘z o‘yinlari, kesma harflar bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar tinch o‘yinlarga misol bo‘la oladi.

O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishda o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari ham muhim ahamiyatga ega.

Abu Ali ibn Sinoning ta'lim-tarbiya masalalariga doir asarlarida o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatiga katta e'tibor qaratilishi bejiz emas. Buyuk olim o‘qituvchini tanlash masalasiga alohida ahamiyat beradi.

S.Raximovning «Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida» nomli risolasida Ibn Sino yosh avlod va uning tarbiyachisi o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun o‘qituvchi quyidagi bir qancha talablarga rioya qilishi lozimligi ko‘rsatiladi:

1. Bolalar bilan muomala qilishda bosiq bo‘lishi.
2. Ta'limning o‘quvchilar tomonidan qanday o‘zlashtirib olinayotganligiga alohida e'tibor berishi.
3. Ta'lim jarayonida turli metod va usullardan foydalanishi.
4. O‘quvchilarning xotirasi va boshqa intellektual qobiliyatlarini bilishi.
5. O‘quvchilarni turli usullar vositasida o‘qishga qiziqtirishi.
6. Bayon qilinadigan masalaning mohiyatini chuqur tushunishi, o‘z fikrlarini adabiy tilda qisqa va aniq ifodalashi.
7. Ta'lim jarayonida o‘quvchilarning yoshi va aqliy darajasiga mos so‘zlarni tanlashi.

8. Har bir soʻz harakat va mimika bilan tasdiqlanishi, bolalarda hissiyot uygʻotadigan boʻlishi zarur.

Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi faqat nasihatgoʻylik qilmasdan, balki amalda ham oʻz xulqi bilan bolalarga taʼsir qilishi kerak.

Oʻqituvchi bilan oʻquvchilarning hamkorlik faoliyati taʼlim subyekting oʻzaro muloqotga boʻlgan ehtiyojini qondirish vositasi boʻlib qolmasdan, balki bu faoliyat oʻquv materialini oʻzlashtirish vositasiga ham aylanishi lozimdir. Yaʼni hamkorlik ikkiyoqlama faollik orqali amalga oshishi mumkin, uni takomillashtirish esa oʻsha vositalar bilan qurollanishni taqozo etadi.

Oʻquvchilarning taʼlimga ixlos qoʻyishi oʻqituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bogʻliq. Bunday hamkorlik oʻzaro muloqotning shunday bir shaklidirki, unda oʻquvchi oʻzini taʼlim obyektiga deb emas, balki ijodiy va erkin harakat qiluvchi shaxs, deb biladi.

Oʻquvchining oʻquv jarayoniga munosabati bu jarayonning qanday borishi, pedagog bilan oʻquvchilar oʻrtasidagi munosabat uslubi, oʻquv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni oʻzlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, baholash tizimiga bogʻliqdir.

Muammoli izlanish va ijodiy ishlash metodi, didaktik oʻynlardan foydalanish jarayonida oʻquvchilar ijodiy faoliyatining oʻsishi oʻquv jarayonining shaxsni kamol toptirishga qay darajada yoʻnaltirilganligiga, oʻqituvchining oʻquvchilar bilan hamkorlik munosabatlarini oʻrnatishiga bevosita aloqadordir.

Oʻqituvchi bilan oʻquvchilarning oʻzaro hamkorligi munosabatlardagi rasmiyatchilikni tugatishga, taʼlim samaradorligini oshirish va ijodiy fikrlashga yordam beradi. Chunonchi, amalda oʻzaro hamkorlik darajasi taʼlim jarayonida koʻtarilgan qoʻllar, oʻquvchilarning erkin faoliyati va hatto oʻzaro munosabatlari, raqobat va uyushqoqlik muhiti bilan beligilanadi. Bunday hamkorlik oʻrnatilgan taʼlim jarayonida oʻqituvchi oʻquvchilar ustidan hukmronlik oʻrnatmasdan oʻzini teng tutsa oʻquvchilar oʻqituvchilari bilan erkin fikr almashadilar.

Shunga koʻra, oʻquvchilarning ijodiy fikr yuritish jarayonini oʻqituvchi bilan

hamkorlik faoliyatiga chambarchas bog'liq deyish mumkin. O'qituvchilar o'quvchilari bilan teng munosabat o'rnatar ekan, beriladigan har qanday topshiriq quvonch bilan bajariladi, natijada ta'lim samaradorligi ham ta'minlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan ta'limiy o'yinlarni boshlang'ich sinf ona tili dasturi bo'yicha tahlil qilamiz. 1-sinf «Ona tili» darsligi 1-bo'limi «Tovushlar va harflar» bo'limidir. Bu bo'limda «o'zim tekshiraman», «harflarni top», «Sirli so'z», «Bu meniki», «Iztopar» o'yinlaridan foydalanish mumkin.

«So'z» bo'limini o'qitish jarayonida «O'zim tekshiraman», «U kim? Bu nima?», «Topag'on», «O'qib ko'rchi», «Sirli so'z», «Zanjir», «Iztopar» o'yinlarini qo'llash o'quvchilarni ijodiy fikrlashga yo'llaydi.

«Hikoya», «O'zim tekshiraman», «Noto'g'ri xulosa», «Bo'lishi mumkin emas», «Davom ettir», «Safar», «Jonli hikoya» o'yinlaridan «Nutq. Gap» bo'limida foydalanish o'quvchilarni ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

4-sinf «Ona tili» darsligi 3-sinfda o'tilganlarni takrorlash va «So'z turkumlari» bo'limlaridan iborat. 4-sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan didaktik o'yinlardan foydalanishda imkoniyatlar katta ekanligini ko'ramiz. Masalan, «Takrorlash» bo'limida «o'zim tekshiraman», «Topag'on», «Noto'g'ri jumla», «Davom ettir», «Safar», «Zanjir», «o'yin-topishmoq», «Rebus», «Krossvord», «Quruvchi» o'yinlaridan foydalanish o'quvchilar uchun ma'lum bo'lgan bilimlarni takrorlash jarayonini zerikarli bo'lmasligini ta'minlaydi va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. 4-sinfda so'z turkumlaridan ot, sifat, son, kishilik olmoshlari va fe'lga doir bilimlar beriladi. So'z turkumlariga doir bilimlar berish jarayonida «o'zim tekshiraman», «hikoya», «Davom ettir», «Jonli hikoya», «O'yin-topishmoq», «Rebus», «Krossvord», «Pantomimo», «Safar», «Tez javob», «So'z o'yini», «Sirli xat» kabi o'yinlardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik munosabatlarini shakllantirishga va ijodiy fikrlashga o'rgatishga yordam beradi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari har bir sinfda bir-biridan keskin farq qiladi. Olti-etti yoshli o`quvchilarning diqqati turg`un bo`lmasligi bois o`yinga ko`proq moyillik bildirishadi. Shu sababli dars davomida o`yinlardan ko`proq foydalanishga to`g`ri keladi.

Keyingi sinflarda o`quvchilar maktab sharoitiga ancha moslashadi, bilim olishga qiziqishlari oshadi. Endi ularni ancha jiddiy ishlarga tayyorlay borish mumkin. Ammo bu holat ta'lim jarayonida o`yinlardan foydalanishni kamaytirish lozim, degani emas. Agar 1-sinfda o`quvchilarni o`yin ko`proq qiziqitirsa, keyingi sinflarda o`yinning mazmuni, natijasini anglashga ehtiyoj tug`iladi. Ular o`z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ko`rsatish imkoni bo`lgan o`yinlarda ishtirok etishga intila boshlaydilar.

Didaktik o`yinlar quyidagi 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich: Bu bosqichda o`qituvchi o`quvchilarni darsgacha bo`lgan vaqtda tayyorlaydi. Tayyorgarlik shundan iboratki, o`quvchilar darsga kerakli o`quv qurollarini oldindan tayyorlaydilar, mavzuga oid materiallar bilan ijodiy tanishadilar, darslik va boshqa nazariy materiallarni ko`zdan kechiradilar.

2-bosqich: Bu bosqichda o`quvchilarga o`yin mohiyati tushuntiriladi, rollar bo`lib beriladi, manbalar bilan tanishtiriladi va o`yin amalga oshiriladi.

Didaktik o`yinlarni o`tkazishda o`qituvchining o`rni juda muhim. O`qituvchi o`yin va uning qonun-qoidalarini o`quvchilarga yetkazadi va o`yinda bevosita ishtirok etib ular bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi, turli talablarni bajarishda namuna bo`lib xizmat qiladi, qo`shimcha ma'lumotlar berib boradi.

O`qituvchi didaktik o`yinlarni o`tkazishga tayyorgarlik jarayonida quyidagi talablarga rioya qiladi:

- tanlangan didaktik o`yinlar o`quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo`lishi;
- har bir o`yin pedagogik va psixologik jihatdan asoslangan bo`lishi;
- o`zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam berishi;
- bir xildagi o`yinlarning ko`p takrorlanishiga yo`l qo`ymaslik;

-o'yinni o'tkazishdan avval o'qituvchi ham, o'quvchilar ham puxta tayyorgarlik ko'rishi;

-o'yin yakunida g'olib va bilimdon o'quvchilarni rag'batlantirib borish.

Biz yuqorida misol tarzida keltirgan didaktik o'yinlar barcha qonun-qoidalar va printsiptial talablarga rioya qilib o'tkazilsa, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishga samarali ta'sir qilishi shubhasizdir.

2.3. Muammoga doir tajriba-sinov ishlari va uning samaradorlik

natijalari

Interfaol usullar mohiyatan o'quvchilarni ko'proq ishlatishni ko'zda tutadigan metodik tizim bo'lsada, ularning o'quv jarayoniga tatbiqi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ona tilini o'qitishdan maqsad o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalarini baholashdagi yangilanishlarni aniqlashdir.

Hech qanday yangiliklarni amalda sinab ko'rmasdan, uning natijasini qanday bo'lishini aytib berib bo'lmaydi. Shuning uchun "Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish yo'llari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga doir tajriba-sinov ishlarini olib bordim.

Tajriba ishi uchun obyekt qilib, Qarshi shahridagi 23-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflarini tanladim.

Ushbu maktabda 12 ta boshlang'ich sinflari bo'lib, men o'z tajriba ishlarimni 4-A sinfini tajriba sinfi va 4-E sinfini nazorat sinfi qilib, tajriba-sinov ishlarini olib bordim. Shunday qilib 4 -A sinf tajriba guruhi o'quvchilarining soni 28 nafarni, 4-E sinf nazorat sinfi o'quvchilarining soni 26 nafarni tashkil etdi.

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldim.

1.Darsni kuzatish va tahlil qilish.

2.Dars jarayonida o'quvchilarning qiziqishlariga qaratilgan usullarini kuzatish va idrok qilishlari qay darajada ekanligini aniqlash va amalda qo'llash.

3.Boshlang'ich sinf ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish, yangidan-yangi usullardan foydalanish, ona tili darsini samaradorligini oshirish.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi boshlang'ich ta'lim maktablari o'quvchilarining ona tili darslarida o'quv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishda o'quv-biluv topshiriqlari va ular ustida ishlash usullarini ishlab chiqishdan iborat. Mana shu usullar orqali o'quvchilarning bilish faolligi va ijodiy fikrlash qay darajada bo'lishi mumkinligi haqida ham ma'lumotga ega bo'ldim. Shuningdek, o'quvchilarning qisman izlanishli o'quv topshiriqlari asosida nazariy

bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish samaradorligini oshirishda o'qitishning turli xil noan'anaviy usullaridan foydalanishdir

Ushbu maqsadlardagi tajribani 3 bosqichda olib borishni rejalashtirdim. Har bir bosqich uchun maqsad va vazifalarni belgilab oldim. Ular quyidagilardan iborat:

1-bosqich: Kuzatuv bosqichi.

2-bosqich: Rivojlantiruvchi.

3-bosqich: Solishtirma.

Kuzatuv bosqichi. Ushbu bosqichda men shu maktabning 2 ta 4-sinflarining bir necha darslarini kuzatdim. Bunga ko'ra ushbu bosqichda sinflarda eksprement o'tkazgunga qadar bo'lgan vaqtgacha amaliyotdagi holatni aniqlash uchun maqsad va vazifalar belgilab olgan edim. Shunga ko'ra ushbu sinflarda kuzatishdan maqsad qilib, hozirgi kundagi ona tili darslarida o'quvchilarni qay darajada mavzular o'rgatilishini, ular uchun shart-sharoitlar, usul va vositalarning ana shu dars uchun qay darajada samara berayotganligini tahlil qildim. Ona tili darslarini kuzatdim.

O'quvchilar jamoasi bilan yaqindan tanishib olgach, ona tili darslarida mavzularni o'rgatishda interfaol metodlardan qay darajada foydalanish zarur ekanligini aniqladim.

O'quvchilarning nutqiy faoliyati orqali ijodiy fikrlashi qay darajada shakllanganligini bilish uchun turli topshiriqlarni berdim. Darslikdagi mavzular doirasiga taalluqli test topshiriqlaridan foydalandim. Dars samaradorligi faol darajada oshmadi. O'quvchilarni o'zlashtirish natijalarini umumiy holda hisoblab chiqdim.

Har bir test savolga to'g'ri javob bersa – 5 ball, 3 yoki 4 ta savolga to'g'ri javob bersa - 4 ball, faqat 1 yoki 2 ta savolga javob bersa – 3 ball va umuman sanab bera olmasa – 0 ball qo'yildi. Shunga ko'ra 20 baldan-25 balgacha – yuqori daraja, 15 baldan - 19 balgacha – o'rta daraja va 15 baldan past bo'lsa – quyi daraja qilib belgilandi. Natijalar quyidagicha bo'ldi:

1. jadval.

Tajriba avvalida o'quvchilar nutqining shakllanganlik darajasi

Sinflar	O'quvchilar soni	Javoblar soni		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	28 nafar	8	12	8
Nazorat guruhi	26 nafar	7	11	8

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, faqatgina nazariy bilimlar berish yoki nazariy bilimlarni hayot bilan bog'lamay turib o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, nutqini boyitish borasida yuqori natijalarga erishish mushkul. Natijalar va ularni sabablaridan xulosa chiqarib, 2-rivojlantiruvchi bosqichni amalga oshirdim.

So'ng II bosqichga o'tdik. Bu rivojlantiruvchi bosqichda quyidagi maqsad va vazifalarni belgilab oldim.

Maqsad va vazifalar: Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga oid dars ishlanmalari orqali darsning samaradorligini oshirish, ona tili darslarida o'quvchilar faolligi va ijodiy fikrlashini o'stirish.

Shunday qilib, biz ma'lum bir mavzu doirasida tajriba sinfimizda ishni olib borishni boshladik. Buning uchun interfaol metodlardan tizimli foydalanishga xarakat kildik. (ILOVA 1)

Interfaol usullar doimo o'quvchilarning faolliklarini, og'zaki nutq boyliklarini oshiribgina qolmay ularning erkin va ijodiy fikrlashga bo'lgan qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu o'zaro samaradorlikka, birdamlikka, faollikka qiziqishlarini yanada oshishiga sabab bo'ladi va darslar samaradorligi ortadi. Bu orqali har bir o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini amalga oshishiga erishishi mumkin.

Tajriba so'nggida o'quvchilar nutqining shakllanganlik va ijodiy fikrlash

darajasi

Jadval-2

Sinflar	O'quvchilar soni	Javoblar soni		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	28 nafar	15	10	3
Nazorat guruhi	26 nafar	7	11	8

Bulardan ko`rinib turibdiki, qilingan tajriba natijasi oshgani isbotlandi. Demak, bevosita qiziqarli tarzda tashkil etib olib borilgan dars samarali ekan. Bu orqali o`quvchilarda bizning ishimizga bo`lgan qiziqishlarini ortishiga, ularni mavzular yuzasidan erkin, mustaqil va ijodiy fikrlashga, interfaol metodlardan samarali foydalanishga yo`naltirildi.

XULOSA

O`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatishda barcha predmetlarni o`rganish uchun kalit vazifasini bajaruvchi ona tili darslari katta imkoniyatlarga ega. Shu sababli ona tili darslarida o`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatishga alohida e'tiborni qaratmoq lozim. Chunki so`z (nutq) ustida erkin fikr yuritish nafaqat o`quv predmetini o`zlashtirishga, ayni paytda o`quvchi tafakkurini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatish jarayonini tashkil etish uchun ta'lim jarayonida uzoq yillardan buyon shakllanib kelayotgan stereotipni - o`qituvchining hukmronlik rolini o`zgartirish, ta'lim jarayonini tashkil etishga yangicha, ijodiy yondashish talab etiladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Insonning dunyoni anglashi, tushunishi, unga ongli munosabatda bo`lish kabi bilish jarayoni tafakkur vositasida amalga oshiriladi. Ona tili ta'limi jarayonida tafakkurning tushuncha, hukm, xulosa kabi shakllaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Ta'lim jarayonining samaradorligi o`quvchilarni rag`batlantirish, ularda motivlarni shakllantirish va rivojlantirish bilan uzviy bog`liq.

3. Ta'lim jarayonining to`g`ri tashkil etilishi fan asoslarini puxta, ongli o`zlashtirish bilan birgalikda ijodiy fikrlashga o`rgatish uchun ham xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida ta'lim metodlaridan o`rinli va to`g`ri foydalanish nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o`quvchilarga ijodiy fikrlash uchun ham imkon beradi.

4. Boshlang`ich sinf ona tili darslarida qo`llaniladigan muammoli izlanish metodi o`quvchilarni ijodiy fikrlashga o`rgatishda asosiy usullardan biri bo`lib xizmat qiladi.

5. Boshlangich sinf o`quvchilarini ijodiy fikrlashga o`rgatish usullaridan yana biri ijodiy ish metodidir. Ona tili darslarida ijodiy ishlarning rekonstruktiv, reproduktiv, ijodiy turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

6. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishda didaktik o'yinlardan, ta'limning interfaol metodlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

7. O'qituvchining o'quvchilar bilan hamkorlik munosabati ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" Qonuni. T. 1997.
- drlar tayyorlash Milliy dasturi. //Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori//. T.: Sharq, 1997. 61 bet.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. T.: 2010. 144 bet
4. Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili : [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yangi yil arafasida – 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashdi] // Xalq so'zi. – 2016. – 31 dek. – B.1. 2017
5. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. O'qituvchi, 2003. 176-b.
6. Ashurova A. Yuldashev Z. Ta'lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llash - zamon talabi. "Xalq ta'limi" jurnali. 2006. №105.
7. Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T. 2006 y.
8. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali №4. 2009 y.
9. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali №5. 2010 y.
10. "Boshlang'ich ta'lim" №6. 2010 y.
11. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinflar uchun. T. "O'qituvchi". 2016 y.
12. Ishmatov K. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar" Namangan 2012-yil.
13. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. "Tafakkur" jurnali, 1998 -yil, 2 -son.
14. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 129b.
15. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T. Sharq, 1999.
16. Qosimova K, Fuzailov F, Ne'matova A. Ona tili darsligi. 2-sinf. Toshkent 2008
17. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. "Noshir". T.: 2009 y.
18. Qurbonova X. O'quvchilarni idiy izlanishga o'rgatish. // Xalq ta'limi j-2003. 3-son 62-63-b.

19. Qurbonova X. “Ona tili” darsligidagi ayrim oʻzgarishlar xususida// Til va adabiyot taʼlimi j-2003 yil. 3-son-13-15-b.
20. Xudoyberganova M va boshqalar. 3-sinfida ona tili darslari. Toshkent, 2004
21. Gʻafforova T. Boshlangʻich taʼlimda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. T.: “Tafakkur” 2012.
22. Gʻafforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlangʻich sinflar uchun ona tili va oʻqishdan didaktik materiallar.- Toshkent: Ilm Ziyo, 2004. – 80 b.
23. Gʻulomov A., Qobilova B. Nutq oʻstirish mashgʻulotlari. Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2001.- 160 b.
24. Gʻafforova T. Boshlangʻich taʼlimda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi “Nasaf” 2009. 163 bet.

Elektron taʼlim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz

ИЛЮБА 1

Oʻyinlar mazmuni va amalga oshirish shakliga koʻra sinflarga ajratilgan edi.

Quyida boshlang`ich sinf ona tili darslarida uyushtiriladigan didaktik o`yinlar va ularning ijodiy fikrlash bilan bog`liq o`ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

«Jonli hikoya». O`qituvchi so`zlar yozilgan qog`ozlarni o`quvchilarga tarqatib, hikoya o`qib beradi (Qog`ozlarda yozilgan so`zlar birgalikda shu hikoyani hosil qiladi). O`qituvchi hikoyani ikkinchi marta o`qib berganda o`quvchilar qo`llaridagi qog`ozlarni shunday ketma-ketlikda joylashtirishlari kerakki, qog`ozlardagi yozilgan so`zlar bir butun gapni, gaplar esa hikoyani hosil qilsin. Bu o`yinni o`tkazishda darslikdagi hikoyalar yoki darslikdan tashqari hikoya va ertaklardan foydalanish mumkin.

«Quruvchi». Bu o`yindan o`quvchilarni guruhlarga bo`lib, o`tgan mavzuni yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida yoki darsdan tashqari mashg`ulotlarda foydalanish mumkin. O`qituvchi avvaldan darsga tayyorgarlik ko`rib, qog`ozdan yoki penoplast bo`lakchalaridan «g`isht»chalar yasaydi va bu «g`isht»chalarga savol yozilgan qog`ozchalarni yopishtirib chiqadi, «g`isht»chalar soni o`quvchilar soniga teng yoki ko`p bo`lishi kerak. Guruhlarga «minora» yoki «devor» qurish uchun joy ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan bola chiqadi va «g`isht»chani olib savolni o`qiydi. Agar savolga to`g`ri javob topsa o`zlarining «maydon»chalariga teradilar. Agar noto`g`ri javob bersalar o`qituvchi «g`isht»chani olib qo`yadi. O`yin shu taxlitda barcha o`quvchilar savollarga javob berib bo`lgunlariga qadar davom etadi. «Qurilish maydonchasi»da eng ko`p gisht tergan o`quvchilar guruhi g`olib sanaladi.

Aralash tipdagi o`yinlar

«Iztopar». Xattaxtaga so`zlarning ba'zi bir harflari tushirib qoldirilib, terib qo`yiladi. «Iztopar» o`quvchi shu harfni harf kassasidan topib o`z o`rniga qo`yadi va hosil bo`lgan so`zni o`qiydi. To`g`ri topgan o`quvchi rag`batlantiriladi. Boshqa o`quvchilarda yana boshqa variantlar bo`lsa ko`rib chiqiladi. Bu o`yin, ayniqsa, savod darslari samaradorligini oshirish bilan birgalikda, o`quvchilarda ijodiylik va ijodkorlikni ham rivojlantirishga ko`mak beradi.

«So`z o`yini». O`quvchilar guruhlarga yoki qatorlarga ajratiladi. Har bir

guruh boshidagi o'quvchiga bir-biridan farq qiladigan harf yozilgan qog'oz tarqatiladi. O'yin boshlangunga qadar guruh ishtirokchilari qog'ozda qanday harf yozilganligini ko'rmasliklari lozim. O'qituvchi buyruq berishi bilanoq boshlovchi o'quvchilar qog'ozni o'nlab unda yozilgan harf bilan boshlanadigan so'z topib yozadilar, so'ng orqada turgan o'quvchiga uzatadilar. Orqada o'tirgan o'quvchi ham shu harf bilan boshlanadigan so'zni yozib keyingi o'quvchiga uzatadi. Shu taxlit barcha o'quvchilar so'z topib yozishlari lozim. Guruh yoki qator oxiridagi o'quvchi o'yin tugagach, qog'ozni o'qituvchiga keltirib topshiradi. O'yinni birinchi bo'lib tugatgan va so'zlarni to'g'ri yozgan o'quvchilar guruhi g'olib sanaladi.

«Sirli xat». Pochtachi kiyimidagi bola sinfga kiradi va shunday deydi: «Men bir qancha sirli xat oldim. Bu xat ustiga kimga tegishliligi yozilmagan. Unda faqat savollar yozilgan. Menimcha, kim shu savollarga to'g'ri javob bersa, xat shu o'quvchiga tegishli bo'ladi». Shundan so'ng «pochtachi» xatjild ustiga yozilgan savollarni o'qiydi. Savollarga kim to'g'ri javob bersa xat o'sha o'quvchiga topshiriladi. Xatjild ichidagi qog'ozda rag'batlantiruvchi so'zlar yozilgan bo'ladi.

Bu o'yindan o'quvchilar diqqatini jamlash, ta'lim jarayonining qiziqarli bo'lishi va samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish mumkin.